

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKUL`TETI
O`ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

4- kurs tarix bakalavr ta'lif yo'nalishi talabasi
DO`STOV ISKANDAR SHODIYOR O`G`LI

MAVZU: O`ZBEKISTON VA YUNESKO ALOQALARI TARIXI.
MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar: asestent. Irisqulov O.J

SAMARQAND-2016

Mundarija

KIRISH.....3-10

I-BOB: O`zbekistonning YUNESKO xalqaro tashkilotiga a`zo bo`lishi

I.1 YUNESKO xalqaro tashkilotining shakllanishi.....11-23

I.2. O`zbekistonning YUNESKO xalqaro tashkilotiga a`zo bo`lishi.....24-33

II-BOB: O`zbekistonning YUNESKO xalqaro tashkiloti bilan ilm-fan, madaniyat sohalaridagi aloqalari.....34-56

II.1. O`zbekistonning YUNESKO xalqaro tashkiloti bilan ilm-fan, kommunikatsiya va axborot sohasidagi aloqalari.....34-40

II.2 O`zbekiston va YUNESKO xalqaro tashkiloti bilan madaniyat sohasidagi aloqalari.....41-56

Xulosa.....57-60

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....61-63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: XXI asr bo`sag`asida jonajon Vatanimiz tarixida buyuk voqeа - qadimiy O`zbekistonning eng yangi tarixini boshlab bergen voqeа sodir bo`ldi. 1991-yil 31-avgust kuni bo`lgan Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida o`zbek xalqining xohish-irodasi bilan O`zbekistonning davlat mustaqilligi, ozod va suveren davlat - O`zbekiston Respublikasi tashkil etilganligi e`lon qilindi. 1-sentyabr O`zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni deb belgilandi. Xalqimizning asriy orzu-umidlari ushaldi, muqaddas maqsadi ro`yobga chiqdi, siyosiy mutelik va asoratdan qutildi. Dunyo XX asr so`nggi xaritasida yana bir mustaqil, ozod, suveren davlat - O`zbekiston Respublikasi paydo bo`ldi. O`zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og`ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasidir.

Vatanimiz tarixi mustaqillik xalqimizga nihoyatda qimmatga tushganidan, bu yo`lda katta qurbanlar berilganligidan guvohlik beradi. Endilikda xalqimizning o`z taqdiri o`z qo`lida, o`z mamlakatining mustaqilligini mustahkamlash yo`lida astoydil mehnat qilmoqda. O`zbekiston Mustaqil davlat sifatida xalqaro Konventsiyalarga va BMT, EXHT, XMT kabi jahonning nufuzli tashkilotlarigi a`zo bo`ldi¹. O`zbekiston davlat mustaqilligini qo`lga kiritgan kunidan boshlab jahondagi nufuzli mamlakatlar bilan davlatlararo alrqalar o`rnatish va uni rivojlantirish yo`lini tutdi, tashqi siyosatning asosiy yo`nalishlarini belgilab oldi va BMT ning 15 ixtisoslashgan tashkilotlaridan biri - YUNESKO ga 1993-yilning 29-oktyabrida a`zo bo`lgan edi. Bitiruv mutaxassislik ishida Vatanimizning milliy

¹ Ўзбекистон мустакиллик одимлари “Ўзбекистон” Т.: 1995-й 45-46-6
3

istiqlol davridagi YUNESKO tashkiloti bilan aloqalarini va uning tarixini yoritishga kengroq o`rin berilgan. O`zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, dunyodagi yirik, rivojlangan mamlakatlar bilan o`zaro manfaatli siyosiy-diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalari yoritilgan. O`zbekiston tarixan qisqa muddatda jahon hamjamiyatida munosib o`rin egalladi, global masalalarda o`zining mustaqil ovoziga ega bo`lgan davlat darajasiga ko`tarildi. Mamlakatimiz o`z mustaqilligina erishgandan keyingi davrdagi O`zbekiston tashqi siyosati, mamlakatimizni xalqaro maydondagi, ayniqsa xalqaro tashkilotlar doirasidagi faoliyati tabora rivojlanayotgan va o`z navbatdagi uning tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlarning ahamiyati ortib borayotgani bilan xarakterlanadi. O`zbekiston respublikasi konstituttsiyasining 17 moddasida «O`zbekiston respublikasi xalqaro munosabatlarni to`la huquqli sub`ektidir» deb ko`rsatib qo`yilgani va ushbu moddaning ikkinchi qismida «Respublika davlatning, xalqning oliv manfaatlari, farovanligi va xavsizligini ta`minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo`stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin» degan qoydani mustahkamlab quyilganligi mamlakatimizni dunyodagi nufuzli xalqaro tashkilotlarga to`la huquqli a`zo bo`libkirishi uchun imkon tug`dirdi, hamda uni diploiatik tan olinishi va xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarga jadal kirib borishi uchun huqiqiy zamin yaratadi². Tinchlik va xamkorlikni mustahkamlash dolzarb bo`lib turgan hozirgi davrda, jahon xalqlarning insonporvarlik g`oyalarni birlashtirishda, dunyomizni barqaror, xavfsiz qilishda xalqaro tashkilotlarning ahamiyati toboro oshib bormaqda. O`zbekiston bilan YUNESKO hamkorligi masalasi o`rganilganda, ushbu hamkorlikning barcha qirralari kabi, uning xalqaro huqiqiy jihatlarini o`rganish ham bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bitiruv ishining maqsad va vazifalari: O`zbekistonning BMT homiyligidagi ta`lim, fan va madaniyat bilan shug`ullanuvchi xalqaro tashkilot—YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993-yil 29 oktyabrdan YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993-yil 29- oktabrda

YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida O`zbekistonni YUNESKO ga a`zolikka qabul qilish marosimi bo`ldi. O`sha kuni Ulug`bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994-yil oktyabrida Parijda Ulug`bek haftaligi tantana bilan o`tkazildi. 1997 yilda jahon madaniyatning durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva YUNESKO ning jahon madaniy qadriyatlar ro`yxatiga kiritildi. Bu ro`yxatda 411 ta ob`ekt bor. 1994 yil dekabrda respublikamizda YUNESKO ishlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi, u idoralararo organ bo`lib, tarkibiga ta`lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 kishi a`zo bo`ldi. YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o`rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. "Ipak yo`li - muloqot yo`li" deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. 1995-yil iyul oyida YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayorning O`zbekistondagi rasmiy tashrifi chog`ida 1995 yil iyul` oyida mazkur institut ochildi. YUNESKO bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996 yil oktyabr`da Parijda Amir Temurga bag`ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo`lib o`tdi. Amir Temur tavallud topgan Shahrисabz shahri YUNESKO ning madaniy qadriyatlar ro`yxatiga kiritildi. 1997-yilda jahon madaniyatning durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko`rgazmalar o`tkazildi. Bu O`zbekiston bilan BMTning nufuzli xalqaro tashkiloti YUNESKO o`rtasidagi hamkorlikning yana bir yorqin ifodasi bo`ldi. 1997-yil 19-20-oktabr kunlari Vatanimizda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan bo`lib o`tgan ulkan tantanalarda BMT, YUNESKO va boshqa ko`plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning elchilarini vakillari, bir qator mehmonlar ishtirok etdilar. Respublikamiz Prezidenti I.Karimov «YUNESKO timsolida eng muhim insonparvarlik masalalarining yechimiga ijodiy yondashishda harakatlanuvchi kuch bulib xizmat qiladigan o`ziga xos, betakror

xalqaro tashkilotni quramiz»³ degan edi. Shunki, hozirgi kungacha inson manfaatlarini ko`zlab ko`plab xalqaro hujjatlar qabul qilingan bo`lib, ular universal va mintaqaviy xarakter kasb etadi. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 70 ga yaqin, Evropa Kengashi tomonidan 160 dan ziyod, YUNESKO tomonidan 70 dan ortiq, evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tomonidan 30 dan ortiq, turli mintaqaviy xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ko`plab inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi. Bugungi kunda hammasi bo`lib inson huquqlari bo`yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjat mavjud. Bu xalqaro hujjatlarda inson huquqlariga oid jahon andozalari belgilab qo`yilgan va ularning milliy qonunlardan ustuvorligi tamoyili aksari davlatlar tomonidan tan olingan. BMT ning ixtisoslashgan muassasalari tizimi mavjud bo`lib O`zbekiston ularning deyarli barchasi faoliyatida ishtirok etmoqda. Shu jumladan, ta`lim, fan va madaniyat masalalari bo`yicha BMT YUNESKO ning faoliyatida ishtirok etish O`zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi.O`zbekiston bilan YUNESKO hamkorligi masalasi o`rganilganda, ushbu hamkorlikning barcha qirralari kabi, uning xalqaro huqiqiy jihatlarini o`rganish ham bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bitiruv ishining maqsad va vazifalari: O`zbekistonning BMT homiyligidagi ta`lim, fan va madaniyat bilan shug`ullanuvchi xalqaro tashkilot –YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda.

1994 yil dekabrda respublikamizda YUNESKO ishlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi, u idoralararo organ bo`lib, tarkibiga ta`lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 kishi a`zo bo`ldi.

YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o`rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. "Ipak yo`li - muloqot yo`li" deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. 1995- xalqaro iyul oyida YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayorning qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro institute tashkil eildi. Federiko

³ Karimov I.A "Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz 7-jild T.: O`zbekiston 1999-yil 2005-y

Mayorning O`zbekistondagi rasmiy tashrifi chog`ida 1995 yil iyul oyida mazkur institut ochildi. YUNESKO bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996 yil oktyabr`da Parijda Amir Temurga bag`ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo`lib o`tdi. Amir Temur tavallud topgan Shahrисabz shahri YUNESKO ning madaniy qadriyatlar ro`yxatiga kiritildi. 1997-yilda jahon madaniyatning durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko`rgazmalar o`tkazildi. Bu O`zbekiston bilan BMTning nufuzli xalqaro tashkiloti YUNESKO o`rtasidagi hamkorlikning yana bir yorqin ifodasi bo`ldi. 1997-yil 19-20 oktyabr kunlari Vatanimizda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan bo`lib o`tgan ulkan tantanalarda BMT, YUNESKO va boshqa ko`plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning elchilari va vakillari, bir qator mehmonlarishtirok etdilar. Respublikamiz Prezidenti I.Karimov «YUNESKO timsolda eng muhim insonparvarlik masalalarining echimiga ijodiy yondashishda harakatlanuvchi kuch bulib xizmat qiladigan o`ziga xos, betakror xalqaro tashkilotni quramiz» degan edi. Shunki, hozirgi kungacha inson manfaatlarini ko`zlab ko`plab xalqaro hujjatlar qabul qilingan bo`lib, ular universal va mintaqaviy xarakter kasb etadi. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 70 ga yaqin, Yevropa Kengashi tomonidan 160 dan ziyod, YUNESKO tomonidan 70 dan ortiq, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tomonidan 30 dan ortiq, turli mintaqaviy xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ko`plab inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar, konventsiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi. Bugungi kunda hammasi bo`lib inson huquqlari bo`yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjat mavjud. Bu xalqaro hujjatlarda inson huquqlariga oid jahon andozalari belgilab qo`yilgan va ularning milliy qonunlardan ustuvorligi tamoyili aksari davlatlar tomonidan tan olingan. BMT ning ixtisoslashgan muassasalari tizimi mavjud bo`lib O`zbekiston ularning deyarli barchasi faoliyatida ishtirok etmoqda. Shu jumladan, ta`lim, fan va madaniyat masalalari bo`yicha BMT YUNESKO ning faoliyatida ishtirok etish O`zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O`zbekiston bilan YUNESKO hamkorligi masalasi o`rganilganda,

ushbu hamkorlikning barcha qirralari kabi, uning xalqaro huqiqiy jihatlari va tarixiy ildizlarini o`rganish ham bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Uni quydagilarda ko`ramiz:⁴

- birinchidan, YUNESKO ning xalqaro tashkilot sifatidagi maqomi, uning xalqaro huquqdagi huquq ijodkorlik faoliyati ilmiy tadqiqotlarda yetarlicha o`rganilmagan. Hozirgi kunda nafaqat O`zbekistonda, balki jahonda YUNESKO to`g`risida ko`plab ma`lumotlar yig`ilgan va turli maqolalar va risolalar yozilgan bo`lsa ushbu tashkilotni xalqaro xuquq sub`ekti nuqtay nazaridan, uning xalqaro tashkilotda, ammo ularning aksariyati, YUNESKO ni turli tadbirlariga bag`ishlanib, ushbu tashkilotni xalqaro xuquq sub`ekti nuqtay nazaridan, uning xalqaro tashkilot sifatidagi faoliyatini etarli darajada ochib bermaydi;
- ikkinchidan, YUNESKO xalqaro hujjatlarning xuqiqiy tabiatini etarli darajada o`rganilmagan bo`lib, XXI asrga kelib jahon hamjamiyati to`qnash kelayotgan dolzarb global muammolarning oldini olish va bartaraf etishda ayniqsa katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki ularni o`rganish hozirgi zamon xalqaro vaziyatini tadbiq etish mumkinshiligin beradi va YUNESKO ning O`zbekiston bilan hamkorligining tarixiy ahamiyatini oshib berishga yordam beradi;
- uchinchidan, YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o`rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. "Ipak yo`li - muloqot yo`li" deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat beri lishi;
- turtinchidan, YUNESKO tomonidan 70 dan ortiq ko`plab inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi. Bularning tarixiy ahamiyatini urganish va tadbiq eish;
- beshinchidan, YUNESKO ning jahon madaniy qadriyatlar ro`yxati dasturiga kiritilgan respublikamizning 411 ta ob`ekti bor. Bu dasturning bugungi kundagi ijorasini urganish.

Bularning barchasi bitiruv malakaviy ishiga ushbu mavzuni tanglashga asos bo`ldi.

Mavzuning tarixshunosligi: Zotan, har qanday matbuot nashri —hoq jurnal,

⁴ Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz" 8-jild T.: O`zbekiston 2000-yil 57-58-betlar

hoq gazeta bo'lsin, zamon tarixini yozishga, bu tarixni yaratishga hissa kushadi, xalqmis tarixinining muayyan jihatlarini aniqlashtirib, oydinlashtirishga yordam beradi. Bitiruv mutaxassislik ishining yozilishida Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, chiqib so`zlashari metodologik asos sifatida urganildi. Shunungdek, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» (T., «O'zbekiston» 2015), Ustav YUNESKO / Mejdunarodnye normativnye akty YUNESKO. M.:Logos 1993, «O'zbekistonnig yangi tarixi» 3-tom (Milliy mustaqillik davri T., «O'bekiston»1999), Q.Uzmanov, M.Sodiqov va S.Burxanovalar muallifligidagi «O'zbekiston tarixi» (Darslik T.2006), G.Hakimovning «O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti» nomli risolasi va boshqada adabiyotlardan foydalanildi. Mavzuning ilmiy yangiliklari: Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston respublikasining BMT homiyligidagi ta`lim, fan va madaniyat bilan shug`ullanuvchi xalqaro tashkilot – YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. Bu aloqalarni yangicha yondashib, yangi davlatchilik kontseptsiyasi va yangi asl manbalar asosida yoritish,chuqur tahlil qilish va o'rGANISH hamda ilmiy aylanishga tushirish. Mavzuning bajarilish usuli va me`todlari: Tadqiqotning ilmiy-uslubiy asoslarini belgilashda bir necha usullarga murojaat qilindi. Mavzuniyoritishda qo`llaniladigan asosiy usullarimizdan birini tavsifiy usul tashkil etadi.Bundan tashqari butun mavzuni yoritish jarayonida ko`plab o`rinlarda qiyosiy metodga ham murojaat qilindi⁵.Tadqiqotnining nazariy-amaliy ahamiyati: Tadqiqot maktablar va kollejlar o`quvchilari uchun O'zbekiston bilan YUNESKO hamkorligi masalasini o`rganishda kerakli ma`lumotlar bera olishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu tadqiqot oliy o`quv yurtlari uchun mukammal darsliklar yaratish yo`lida amaliy yordam beradi hamda talabalarga maxsus kurs sifatida o`qilishi mumkin.Mavzuning tadqiqot obekti: O'zbekiston bilan YUNESKO hamkorligi masalasi o`rganilganda, ushbu hamkorlikning barcha qirralari kabi, uning xalqaro huqiqiy jihatlari ham bugungi kundagi dolzarb masalalari hisoblanadi. YUNESKO tomonidan ota-babalarimizning yubeley

⁵ Международное право в документах: Учеб.пособие. Сост.: Н.Т.Влатова, Г.М. Мелков. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Инфра, 1997. С-103.

kunlarining dunyo miqyosi ko`lamida o`tkazilishi.

Malakaviy ishning aprobatsiyasi: Malakaviy bitruv ishi Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining O`zbekiston tarixi kafedrasи majlisida, tarix fakulteti ilmiy-usluviy kengashida qarab chiqildi va himoya qilishga tavsiya etildi. Malakaviy ishning tuzilishi: ish, kirish, har biri bir nechta paragraflardan iborat 2 bob, umumiylar, xulosalar, asosiy va qo`shimchalar va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat va hajmi 63-bet.

I-BOB: O`zbekistonning YUNESKO xalqaro tashkilotiga a`zo bo`lishi

I.1. YUNESKO xalqaro tashkilotining shakllanishi.

YUNESKO tashkiloti xususida gap ketganda, avvalo Birlashgan Millatlar Tashkilotiga to`xtalib o`tish joiz hisoblanadi. Ushbu tashkilot to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambliyasining 48-sessiyasidagi nutqida “Birlashgan Millatlar Tashkiloti barcha elatlarning, mintaqalarning eng muhim muommolarini muhokama qilish va yechish uchun tuzilgan noyob tashkilotdir”⁶ deb, takidlagan edi.

Bu tashkilotning tashkil etilishining asosiy bosqichlari 1941-1945-yillarga to`g`ri keladi. BMT ning tashkil topishi, tuzilishi, maqsadlari, vazifalari va uning O`zbekiston bilan o`zaro munosabatlarini G. Hakimov “O`zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti” nomli risolasida BMT ning ixtisoslashgan tashkilotlariga, xusan, YUNESKO ga to`xtalib o`tadi va umumiylar masalalarga etiborini qaratadi. Shu tariqa xalqaro maydonda BMT tuzimi shakllandi. BMT ning ixtisoslashgan muassasalari doimiy ishlovchi xalqaro tashkilorlar bo`lib, ularni tuzish to`g`risidagi, ta`sis hujjatlari doirasida cheklangan muddatda ishlaydi va ular iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy gumanitar mazmundagi muassasalarga bo`linadi.

BMT Nizomining 57, 59, 63 va 70-moddalarida BMT ning asosiy yo`nalishlari va xalqarotashkilotlarida va Nizomiga asosan tashkilot bilan bog`liq taraflari keltirib o`tilgan. Hozirgi kunda BMT ning ixtisoslashgan muassasalari

⁶ Islom Karimov./ BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nutqi./ Xalq so`zi. 1993-yil. № 27(49)

doimiy ishlovchi xalqaro tashkilotlar uyushgan. Bunday tashkilotlarga quyidagilar kiradi: Xalqaro Mehnat tashkiloti, Xalqaro elektr aloasi ittifoqi, Butunjahon Sog`lijni saqlash tashkiloti, Butunjahon meterologiya tashkiloti, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti va ilm , fan, madaniyat masalalari bo`yicha tashkilot – YUNESKO hisoblanadi. BMT ning fan, ta`lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkiloti – YUNESKO (United Nations Educational Scientific and Cultural Organization) ning tashkil topishida quyidagi xalqaro tashkilotlar unga o`tmishdosh bo`lgan:

1. Intellektual hamkorlik bo`yicha xalqaro qo`mita
 - Jeneva 1922-1946-yillar;
2. Intellektual hamkorlik bo`yicha xalqaro institut
 - Parij, 1925-1946-yillar.

YUNESKO – Fransiya hukumati tomonidan tashkil etilib, 1921-yilda Millatlar Ligasi doirasida tashkil etilgan Intellektual hamkorlik bo`yicha xalqaro qo`mitasining va 1926-yili Millarlar Ligasi ixtiyoriga o`tkazilgan xalqaro intellektual hamkorlik institutining tabiiy davomi hisoblanadi. Qo`mita yigirmata a`zoga ega bo`lib, ular intellektual hamkorlikka oid xalqaro masalalarni o`rganish bilan shug`illanar edi. Intellektual hamkorlik bo`yicha xalqaro institut esa Millatlar Ligasining Maslahat organi bo`lib, uning vazifasi intellektual hamkorlik qo`mitasiga ekspertlar majlislarini tayyorlash va o`tkazish, maorif, fan va madaniyat masalalari bo`yicha tadqiqot o`tkazishdan iborat edi.

3. Xalqaro ta`lim byurosi Jeneva, 1925-1968-yillar.

1942-yil noyabrda Londonda ittifoqchi davlatlarning ta`lim vazifalarini ta`lim sohasidagi hamkorlik masalalari bo`yicha konferensiyasi boshlandi. U 1945-yil 5-dekabrgacha davom etdi. Ushbu konferensiya davomida BMT doirasida maorif va madaniyat masalalari bo`yicha tashkilot tuzish to`g`risida takliflar kiritilgan edi.⁷ BMT ning ixtisoslashgan muassasi sifatida YUNESKO ni tashkil etish to`g`risida

⁷ Levitin L. "O`zbekiston tarixiy burilish pallasida" T:O`zbekiston,2007-yil

urushdan keyin Londonda 44 davlat vakillaridan iborat konferensiyada kelishib olindi va uning Nizomi qabul qilindi. 1945-yil 16-noyabrda YUNESKO ning Nizomi imzolandi va tayyorgarlik komissiyasi tuzildi. Bu komissiyaga konferensiyadagi barcha a`zo davlatlarning vakillari kirgan. Uning birinchi bosh direktori bo`lib angliyalik professor biolog Julian Xonksli tayinlandi.

Tayyorgarlik komissiyasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan edi. Tashkilot bosh konferensiyasining 7-sessiyasi muddatini belgilash, konferensiya kun tartibini, tashkilotini va dasturiy ishlariga va byudjetiga oid tavsiyalarni tayyorlash, ta`lim, fan va madaniyat sohasida urush vaqtida zarar ko`rgan hududlarga zaruriy yordam bo`yicha kerakli choralarni ko`rish.⁸

YUNESKO bosh konferensiyasining birinchi sessiyasi 1946-yil 19-noyabrda Parijda bo`lib o`tdi. 1946-yil 14-dekabrda BMT ning Bosh Assambleyasi BMT bilan YUNESKO o`rtasidagi kelishuvni tasdiqladi va u ta`lim, fan, madaniyat sohasida ixtisoslashgan muassasa sifatida BMT tizimiga kirdi.⁹ YUNESKO tashkil topgan paytda uning 28 a`zosi bor edi, 2004-yilga kelib, uning a`zolari 190 ta ga yetdi.¹⁰ YUNESKO ning bosh vazifasiadolat, qonunchilik va inson huquqlarini hurmat qilishni ta`minlash yo`lida xalqlarning keng hamkorligini rivojlantirishga asoslanib, insonlar ongida tinchlik g`oyalari va umuminsoniy qadriyatlarini singdirish hisoblanadi. Tashkilotning vakolatiga ta`luqli bo`lgan masalalarni, faoliyatini asosiy yo`nalishlardan kelib chiqqan holda quyidagi tamoyillarga bo`lish mumkin: Birinchidan, inson huquqlari himoya qilish va tinchlikni o`rnatish; Ikkinchidan, bilimlarni tarqatish, axborot almashish, odamlar va xalqlar o`rtasida aloqalar o`rnatish; Uchinchidan, inson va jamiyatni rivojlantirish; To`rtinchidan, inson va tabiat o`rtasida uyg`unlik va barqarorlik. Endi YUNESKO ga davlatlarning a`zo bo`lishlarini o`rganib chiqsak va tadbiq etsak.

⁸ G.Hakimov“O`zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti” T:G` .G`ulom nomidagi”Adabiyot va san`ati.2001.12-bet

⁹ЮНЕСКО и Узбекистан/] и форматсионниъ бюллетен. Париж 1996.-] -5

¹⁰Sumonides J, Volodin V. UNESSED and Humon Kiyhths standart – instiments, mojar mutengs and publicati. 1999-y

Yaponiya – 1953-yil, Germaniya Federativ Respublikasi – 1953-yil, Ispaniya- 1953-yil, SSSR- 1954-yil, (YUNESKO ning tashkil topishida ishtirok etmagan) Ukraina – 1954-yil, Belarussiya – 1954-yil, Xitoy Xalq Respublikasi – 1971-yil, Germaniya Demokratik Respublikasi – 1971-yil va hakazo... YUNESKO ning asosiy a`zolaridan tashqari uning 4 ta assotsasiyaviy a`zolari (o`zining mustaqil tashqi siyosatini olib boradigan subyektlari bo`lib, ular Aruba, Britaniya Virkiniya oroli, Makao, Niderlandiya Antillari) mavjuddir.

Shunday qilib, YUNESKO a`zolarini ikki turga bo`lish mumkin. 1- YUNESKO ga a`zo davlatlar; 2- YUNESKO ning assotsasiyaviy a`zolari. YUNESKO Nizomiga muvofiq har bir mamlakatlarda YUNESKO ishlari bo`yicha Milliy komissiya mavjud. Ushbu institut BMT tizimidagi boshqa ixtisoslashgan tashkilotlarda mavjud emas. Milliy komissiya vazifasi YUNESKO vakolatiga aloqasi bor bo`lgan va ushbu tashkilot dasturlarini u yoki bu drajada bajarishda ishtirok etish xohishini bildirgan mamlakat ichidagi tashkilotlar va muassasalar faolyatini muvofiqlashtirishdir. Unga quyidagi to`rtta fynksiya yuklangan⁹:

- ❖ Hukumatga maslahatlar berish va jamoatchilikni xabardor qilish;
- ❖ A`zo davlatlarning YUNESKO bilan aloqalarini har tomonlama rivojlantirish;
- ❖ YUNESKO dasturlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda ishtirok etish;
- ❖ O`z tadbirlarini (Ko`rgazmalar, konferensiyalar va boshqalar) amalga oshirish.

Masalan: YUNESKO ishlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi O`zbekistonda YUNESKO dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda tegishli vazifalar, idoralar va muassasalarning faoliyatlarini muvofiqlashtirib boradi; Uning tarkibiga ta`lim, fan, madaniyat va axborot sohasi bilan shug`illanuvchi vazirliklar, idoralar, ilmiy ijodiy va jamoat tashkilotlarining rahbar vakillari kiradi. Bu komissiyaga O`zbekiston Respublikasi Bosh Vazir o`rinbosari rahbarlik qiladi. Ushbu komissiya 1994-yil 29-dekabrda tashkil qilingan.

⁹ Sumonides J, Volodin V. UNESED and Humon Kiyhths standart – instiments, mojor mutengs and publicati. 1999-y

YUNESKO a`zosi bo`lgan 178 mamlakatda YUNESKO ishlari bo`yicha Milliy komissiyalar mavjuddir. Milliy komissiyalar davlat maslahat organi sifatida ishlamoqda. Jahondagi Milliy komissiyalar faoliyati tahlil etilganda, ularni amaliyotda shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin bo`ladi, ya`ni nafaqat YUNESKO faoliyatiga oid xalqaro hujjatlarni hayotga tadbiq etish bilan shug`illanuvchi, balki YUNESKO doirasida norma ijodkorlik faoliyatiga ta`sir ko`rsata oladigan va jarayonda faol ishtirok etayotgan milliy komissiyalar; Masalan, YUNESKO ishlari bo`yicha Rossiya umummiliy komissiyasi, Koreya milliy komissiyasi. Shuningdek, faqat YUNESKO ning normative hujjatlarini hayotga tadbiq etish bilan shug`illanuvchi milliy komissiyalardir. Milliy komissiyalar davlat maslahat organlari sifatida ishlamoqda. Jahondagi milliy komissiyalar faoliyati tahlil etilganda ularni amaliyotda shartliravishda ikki turga ajratish mumkin bo`ladi: Nizomning VII moddasiga ko`ra YUNESKO a`zo davlatlarga ushbu milliy komissiyalarini tuzishda yordam beradi. Bundan tashqari YUNESKO bilan o`zaro hamkorlikni rivojlantirishda a`zo davlatlarning YUNESKO qoshidagi doimiy vakolatxonalarini ham ahamiyat kasb etadi. Chunki, xalqaro tashkilotlarda doimiy vakillik instituti davlatllarning chet-eldagi diplomatik organi hisoblanib, uning xalqaro tashkilot bilan aloqasining mustahkamlanishiga va tashkilot doirasidagi ushbu davlatning faoliyatini yanada kengayishga va ta`sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Doimiy vakolatxonalarining asosiy vazifalari yuborayotgan davlatlarning tashkilot faoliyatida ishtirokini ta`minlash, yuborayotgan davlatlarning tashkilotga nisbatan bo`lgan manfatlarini himoya qilishdan iborat. Doimiy vakolatxonaning o`z davlati fuqarolarining diplomatik himoya qilish, konsullik vazifalari yo`q¹⁰. Doimiy vakolaxona – doimiy vakolatxona boshlig`I, diplomatik xodimlar, ma`muriy texnik xodimlardan iborat bo`ladi. Bunday institut BMT va Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Juhon Sog`lijni Saqlash Tashkiloti, YUNESKO kabi ixtisoslashgan tashkilotlarda mavjud. Hozirgi kunda, 165 mamlakat YUNESKO bosh qarorgohi Parij shahrida

¹⁰ Qarang: Ta`lim va madaniyat masalalari bo`yicha BMT ustavi/YUNESKO xalqaro me`yoriy hujjatlar to`plami. T:Adolat 2004, 15-bet.

YUNESKO qoshida doimiy vakolatxonasiga ega. YUNESKO bilan hamkorlik aloqalari olib borilganda Doimiy vakolatxona hamkorlikning siyosiy va huquqiy tomonlariga ma`sul hisoblansa, Milliy komissiyalar esa hamkorlikning ta`lim, fan va madaniyat sohalariga ma`sul hisoblanadi.

YUNESKO xalqaro tashkilot sifatida o`zining tashkiliy tuzilmasiga ega. Uning asosiy rahbar organlari Bosh konferensiya, Ijroiya qo`mitasi va Kotibiyat hisoblanadi. Ushbu organlar YUNESKO faoliyatida rahbarlikni amalga oshiradi. YUNESKO organlari xususida fikr yuritilganda, uning inson huquqlarini himoya qilish bilan shug`illanuvchi mexanizm to`g`risida ham alohida to`xtalib o`tish maqsadga muvofiqdir. YUNESKO vakolat doirasida inson huquqlariniamalga oshirish bilan bog`liq holatlar, masalalarga tegishli xabarlarni o`rganib chiqish kiradi. Huquqni muhofaza qilish qo`mita faoliyatida markaziy o`rinni egallaydi. Qo`mita hozirgi inson huquqlari bilan shug`illanuvchi xalqaro tashkilotlar tizimida o`zining o`rnini topgan.

YUNESKO tashkilotining hozirgi davrdagi faoliyatiga baho berar ekanmiz, quyidagilarga ham alohida to`xtalib o`tish lozim bo`ladi. Ya`ni 558 nafar nohukumat tashkilot YUNESKO bilan rasmiy munosabatlarni o`rnatgan. Shuni qayd etish lozimki, xalqaro nodavlat tashkilotlar YUNESKO da uch kategoriyada maslahat maqomiga ega:

- A) Maslahat va hamkorlik qiluvchi;
- B) Axborot va maslahat qiluvchi;
- C) O`zaro axborot kategoriyasi,¹¹

YUNESKO xalqaro nodavlat tashkilotlariga moliyaviy yordam ko`rsatishi mumkin. Dunyodagi dan ko`proq o`rta maktablar YUNESKO ning Birlashgan maktablar dasturiga a`zo bo`lib, ular yosh avlodni bag`rikenglik va xalqaro bir-birini tushunish g`oyalari asosida tarbiyalashga ko`mak bermoqda. 4800 dan ortiq

¹¹ЮНЕСКО и Узбекистан/] и форматсионниеъ бюллетен. Париж 1996. С-29

YUNESKO klublar uyushmasi va markazlari tashkilotning g`oyalarini tarqatishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda YUNESKO 50 dan ortiq byulleten va 20 dan ortiq davriy nashrlar chiqardi. Ular orasidagi eng mashhurlari “Kelajak” (Ta`lim sohasidagi haftalik), “Muzey”, “Ijtimoiy fanlar xalqaro aylanmasi”, “Tabiat vs resurslar”, “Mualliflik huquqi bo`yicha byulleten”, “Ta`lim byurosi xalqaro byulleteni”, “Fan va jamiyat” kabilardan iborat. “YUNESKO KURERI” jurnali esa 30 tilda nashr etildi. Ammo, moliyaviy muommolar tufayli jurnalning hozirgi kundagi nashri to`xtatilgan. YUNESKO har ikki yilda bir marotaba chop qiluvchi ta`lim, fan, madaniyat va kommunikasiya holati haqida umumjahon ma`ruzalarni chop etadi. YUNESKO “Insoniyatning ilmiy va madaniy rivojlanish tarixi” (6-jild), “Islom madaniyatining turli tomonlari” (6-jild), “Lotin Amerikasi davlatlat tarixi” (7-jild), “Karib havzasi davlatlari tarixi” (6-jild), “Afrika umumiy tarixi”(8-jild), “Markaziy Osiyo svilizatsiyasi tarixi”(6-jild) kabi fundamental nashrlar chop etmoqda.¹² Tashkilot faoliyatini o`rganar ekanmiz, u hozirgi kunda quyidagi asosiy yo`nalishlarda olib borilmoqda.

- ❖ Birinchi yo`nalish – Ta`lim va kelajak. YUNESKO uning ustuvor yo`nalishi hozirgi zamon talablatiga mos umum-boshlang`ich ta`limni va oily ta`limni rivojlantirishni ta`minlab borishdan iborat. Bundan tashqari YUNESKO maorif sohasidagi ma`muriyat xodimlarini tayyorlashga, shuningdek, mahalliy maktablarning qurilishiga va jihozlanishiga ko`maklashmoqda bu sohada YUNESKO ning “Butun umr mobaynida ta`lim barcha uchun” dasturi muhim ahamiyatga egadir.
- ❖ Ikkinci yo`nalish – Ilm, fan, texnologiyaning barcha sohalarda integratsiyalashuvini; bu masalaga oid 1999-yil oktabr, noyabr oylarida bo`lib o`tgan YUNESKO ning 30-sessiyasida alohida to`xtalib, o`zinig asosiy yo`nalishlaridan biri deb ko`rsatilgan.shuningdek, bo`lajak avlodni atrof-muhitga

¹²ЮНЕСКО и Узбекистан/] и форматционниеъ бюллетен. Париж 1996. С-29

va barqaror taraqqiyotga, madaniy rang-baranglikni rivojlantirishga ko`maklashishga, ilmiy natijalarga taaluqli, mintaqviy normalarni ishlab chiqishga va texnik axborotlarga kirishga ko`proq e`taborni qaratish.

- ❖ Uchinchi yo`nalish – Ijtimoiy fanlarni rivojlantirish. YUNESKO ayollar ahvolini yaxshilash sohasi bo`yicha o`qitish va ko`maklashish, yoshlar bilan bog`liq muommalar ya`ni ortirilgan immunitet tanqisligi sindiromi (OITS) dan ogohlantirish masalalarini o`qitish kabi tadbirlarga yordam beradi.
- ❖ To`rtinchi yo`nalish – Madaniyat: o`tmish, hozirgi zamon va kelajak. YUNESKO ning madaniy faoliyati madaniyat yodgorliklari obyektlari ro`yxatiga¹³ ta mamlakatda jotlashgan 400 dan ortiq madaniyat va tabiat yodgorliklari kiritilgan. Tashkilot ijodni va ijodiy faoliyatni, madaniy o`z-o`zini asrashni rag`batlantiradi.
- ❖ Beshinchi yo`nalish – Kammunikatsiya, axborot va informatika inson xizmatida; YUNESKO millatlar orasida fikrlarning keng va axboroterkinligi, fikrlar xilmalligi va ommaviy axborot vositalarining rang-barangligi tamoyillarini rag`batlantirish maqsadlarida rivojlanayotgan mamlakatlarga o`zlarining infratuzilmasini qurishda yordam ko`rsatadi.
- ❖ Oltinchi yo`nalish - Inson huquqlari va demokratiya, Kammunizmning barcha turdagи ko`rinishlariga qarshi kurashish kabi masalalar.

Yarim asrdan ortiq davr mobaynida YUNESKO adolatni, insonparvarlikni, inson huquqlari va asosiy erkinliklarni umumbashriy hurmat qilishni har tomonlama ta`minlashga harakat qilib, ta`lim va madaniyat va kammunikatsiya sohasida xalqlar o`rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga yordam bermoqda. Dunyo jahon madaniyati va intelektual merosini asrash ishida, yosh va rivojlantirayotgan davlatlarda milliy madaniyatlarni qayta tiklashda davlatlar o`rtasidagi o`zaro tushinishni rivojlantirish ishiga YUNESKO ning qo`shgan hissasi yuqori baholanmoqda. Tashkilot hozirgi vaqtda o`z faoliyatini jahondagi o`zgarishlarga moslashtirmoqda va a`zo davlatлага o`z vakolati doiraida hozirgi zamonning eng muhim muommolarini yechishga yordamini bermoqda. YUNESKO ta`lim, fan va

¹³ Устав ЮНЕСКО./Международные нормативные акты ЮНЕСКО М.Логос 1993-й

madaniyat sohalarida tinchlik va umumbashriy gullab-yashnash ildizlarini hamkorlik va o`zaro ma`naviy aloqalarni kengaytirish va ko`paytirish yo`li bilan targ`ib qilmoqda. Uning ushbu kundalik faoliyati o`zaro bir-biriga bog`liq bo`lgan maqsadlarga qaratilgan. Taraqqiyotga yo`naltirilgan YUNESKO ning strategiyasi quyidagilar:

- Barcha uchun to`xtovsiz ta`limga ko`maklashish;
- Bilimlarni olish va tarqatishni rivojlantirishga ko`maklashish;
- Madaniy qadriyatlarning rolini oshirish va rag`barlantirish;
- Axborotni erkin tarqatilishi va kommunikatsiyani rivojlantirishga ko`maklashish;
- Tinchlik, inson huquqlari, demokratiya, tolerantlik va xalqaro hamjihatlik sohasiga ta`limni rivojlantirish;
- Inson huquqlarini rivojlantirish va kamsitishga qarshi kurashish;
- Demokratiya jarayonlarini qo`llab-quvvatlash va mustahkamlash;
- Madaniy fikrnlar xilma-xilligi, madaniyatlar o`rtasidagi muloqotlarni rivojlantirish;
- Mojarolarning oldini olish va mojarolardan keying tinchlikni o`rnatishga ko`maklashishdan iborat.¹⁴

1999-yildan boshlabtashkilotga ko`proq vakolatlilik, samaradorlik, taniqlilik va faoliyatiga hisobdorlik berish maqsadida YUNESKO da radikal islohotlar boshlanadi. Bu maqsadda quyidagi yo`nalishlarda uchta ishchi guruh tuzildi:

“Boshqaruv”, “Markazlashmaslik”, “YUNESKO XXI asrda”.¹⁵

YUNESKO jahoning eng yirik, ko`zga lo`ringan tashkilotlariga aylandi. U hozirgi kunda insonning ta`lim, fan madaniyat va komminikatsiya sohasini, shuningdek, shu soha bilan boshqa sohalarni qamrab olmoqda. YUNESKO ni maqsadi insiniyatni aql-zakovat va axloqiy birliga asoslangan barqaror tinchlikni barpo qilish bo`lib, uning dasturlari dunyo madaniyatiga ko`maklashish, barqaror taraqqiyot va insoniyat taraqqiyoti uchun yo`naltirilgandir. Chunki, u barcha insonlar uchun ta`lim yutuqlarlarni to`playdi, ekologik tadqiqotlar uchun xalqaro

¹⁴ Устав ЮНЕСКО./Международные нормативные акты ЮНЕСКО М.Логос 1993-й

¹⁵ ЮНЕСКО и Узбекистан/] и форматционниъю билютен. Париж 1996. С-29

ilmiy dasturlar tuzishga ko`maklashadi, milliy madaniyatlarning ro`yogga chiqishini qo`llab quvvatlaydi, dunyoviy meros hisoblangan boyliklarni saqlash va kengaytirishga, axborot oqimi va matbuot erkinligiga yordam beradi, rivojlanayotgan davlatlarning kommunikatsiya imkoniyatlarini oshirishga ko`maklashadi.

Shuningdek, YUNESKO xalqaro tashkiloti huquq ijodkorligi sohasida ham keng qamrovni amalga oshirib kelmoqda. Hozirgi kungacha inson manfatlarini ko`zlab xalqaro hujjatlar qabul qilingan bo`lib, ular universal va mintaqaviy xarakter kasb etadi. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 70 ga yaqin, Yevropa Kengashi tomonidan 160 dan ziyod, YUNESKO tomonidan esa 70 dan ortiq inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar, konferensiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi. Bugungi kunda hammasibo`lib inson huquqlari bo`yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjatlar mavjud.

Bu xalqaro hujjatlarda inson huquqlariga oid jahon andozalari belgilab qo`yilgan va ularning milliy qonunlardan ustuvorligi tamoyili aksariyat davlatlar tomonidan tan olingn¹⁶. BMT ni xalqaro hukumatlararo tashkilotlari tizimi xalqarohuquqiy tizimning taraqqiyotida huquqni vujudga keltirish jarayonida ishtirok etish orqali ta`sir qilmoqda. Huquqni vujudga keltirish keng qamrovi kategoriya, o`ziga bir necha bosqichlarni qamrab olgan va ular quyidagilardan iborat:¹⁷

- 1) Huquqiy normalarni paydo bo`lish zaruriyatlarini vujudga keltiruvchi ijtimoiy omillarni o`rganish;
- 2) Huquqiy normalar mohiyatini tashkil etuvchi tartib-qoidalarni shakllantirish;
- 3) Bu qoidalarni majburiy sifatda va xalqaro huquqiy majburlash choralari bilan himoyalashga muvofiq tan olish. Shu bilan birga qayd etish lozim, xalqaro huquqda tarib qoidalarni rasmiylashtirish yozma shaklda, shuningdek, xalqaro munosabatlar ishtirokchilarni ma`lum bir amaliyoti ko`rinishi sifatida ham amalga oshirishi mumkin. Xalqaro tashkilotning huquqiy normalarni tuzishga, ularni

¹⁶Qarang: Ta`lim va madaniyat masalalari bo`yicha BMT ustavi/YUNESKO xalqaro me`yoriy hujjatlar to`plami. T:Adolat 2004, 16-bet.

¹⁷ Устав ЮНЕСКО./Международные нормативные акты ЮНЕСКО М.Логос 1993-й

o`zlashtirish yoki bekor qilishga yo`naltirilgan faoliyatini qamrab oladi. Shuni e`tiborga olish kerakki, hech qaysi xalqaro tashkilotlar ham “qonunchilik” vakolatiga ega emas. Ya`ni xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan tavsiya, qoidalar va shartnomalar loyihalarda mavjud bo`lgan har qanday normalar birinchidan; davlatlar tomonidan xalqaro-huquqiy norma sifatida tan olinishi lozim, ikkinchidan; norma ushbu davlatlar uchun majburiy bo`lishi lozim.

BMT tizimida xalqaro tashkilotlar o`zining huquqiy layoqatlilagini xalqaro ommaviy huuq normalarini yoritish orqali amalga oshiriladi. 1986-yilgi davlatlar va xalqaro tashkilotlar o`rtasidagi shartnomalar huquqi to`g`risidagi Vena konferensiyasining 6-modasiga binoan, xalqaro tashkilotlarning bo`lgan huquqiy layoqati ushbu tashkilotlar qoidalar belgilanib qo`yiladi.¹⁸ Xalqaro tashkilotlarning huquq ijodkorligi funksiyasi ikki xil toifaga bo`linadi:

- Birinchidan – ular davlatning norma yaratish jarayonida ishtirot etadilar;
- Ikkinchidan – ularning o`zi xalqaro munosabatlar ishtirotchilari uchun majburiy bo`lgantartib qoidalarni shakllantiradi.¹⁹

YUNESKO huquq ijodkorligi faoliyatining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 1) YUNESKO nizomida ko`rsatib o`tilgan vazifalardan kelib chiqib adolat, qonunchilik va inson huquqlarining umumhurmatini ta`minlashda ta`lim, fan va madaniyat sohasida xalqlar hamkorligini mustahkamlashga ko`maklashish.
- 2) Xalqaro hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish. Bu jarayonda hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish uch kategoriyyaga bo`linadi:
 - A) Bosh konferensiya tomonidan qabul qilinadigan konsorsiumlar va tavsiyalar;
 - B) Bosh komessiya qabul qilinadigan boshqa normativ hujjatlar, deklaratsiya, nizomlar, qoidalar va statuslar;

¹⁸ O`zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1998-y 144-bet.

¹⁹ Международные право в документах: Учеб.пособие.
Сост.! Н.Т Влотова, З.М.Мелков. – 2-е изд. перераб. И доп
М:генфо, 1997-й С-103

C) YUNESKO ning faqat o`zi yoki boshqa xalqaro tashkilot bilan birgalikda qatnashadigan davlatlar konferensiyalari qabul qiladigan hujjatlar.

3) YUNESKO da ishlab chiqiladigan xalqaro hujjatlarning huquqiy darajasi belgilanadi:

YUNESKO ning bosh konferensiyasi qabul qilganidan so`ng davlatlarda ratifikatsiya qilinishkerak bo`lib va ma`lum bir sohaga tegishli ravishda o`rnatalgan reglomentga nisbatan davlatlar xohishi va majburiyatini aks ettiruvchi xalqaro konferensiyala.

Davlatlarga tavsiyalar – bu hujjatlardam bir tomondan konsepsiylar, tamoyillar va me`yorlarni shakllantirib, har bir alohida mamlakatning o`z xohishiga ko`ra qonunchilik bilan yoki ularni hayotga tadbiq etish uchun boshqacha xarakterga yo`naltirish kerak, boshqa tomonlama esa ularda keyinchalik yuqori huquqiy daraja asosida, majburiy me`yorlar va qoidalar xalqaro konsorsiumlarda yo`naltirilgan me`zonlar belgilanadi.

4) Konvensiyani qabul qilish to`g`risida qarorni Bosh konferensiya kiritadi, buning uchun a`zo davlatlarning uchdan ikki qismining ko`pchiligining ovozi talab etiladi. Tavsiyalar nisbatan Bosh konferensiyaga ularga nisbatan qabul qilingan a`zo davlatlarning oddiy ko`pchilik ovozi talab etiladi. YUNESKO Nizomining VIII moddasiga asosan har bir a`zo davlat tashkilotga Bosh konferensiya belgilangan muddatda va shaklda IV moddaning 4 – bandida ko`rsatib o`tilgan konvensiyalar va tavsiyalarning bajarilishlari yuzasidan ma`ruzalar taqdim etadi.²⁰ Hozirda YUNESKO ning norma ijodkorlik faoliyatini tanada rivojlantirish bilan birga, ushbu hujjatlarning qatiyilagini hamkuchaytirish zarur deb hisobladi. Chunki, YUNESKO hujjatlarini tahlil qilganimizda ushbu hujjatlarning ishlash mexanizmi samaradorligini yetarli ravishda kuch bilan taminlanganligini ko`ramiz. Hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasi YUNESKO ning quyidagi muhim xalqaro hujjatlariga qo`shilgan.²¹

²⁰ Устав ЮНЕСКО./Международные нормативные акты ЮНЕСКО М.Логос 1993-й

²¹ O`zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1998-y 144-bet.

- 1) 1954-yil 14-maydagi qurolli mojarolar vaqtida madaniy boyliklarni himoya qilish to`g`risidagi Gaaga konferensiyasi.
- 2) 1960-yil 10-noyabrdagi ta`lim sohasidagi kamsitishga qarshi konvensiyasiga.
- 3) 1966-yil 14-noyabrdagi xalqaro madaniy hamkorlik prinsplari Deklaratsiyasi;
- 4) 1970-yil 14-noyabrdagi madaniy boyliklarni qonuniy ravishda olib kelish, olib ketish va unga egalik huquqini birovga topshirishni taqiqlash va ogohlantirish chora-tadbirlari to`g`risidagi kovvensiyaga;
- 5) 1971-yil 2-fevraldagagi asosan suvda suzuvchi qushlarni yashash joyi sifatida xalqaro ahamiyatga molik suv botgan maydonlari to`g`risidagi konvensiyaga;
- 6) 1972-yil 16-noyabrdagi Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish umumjahon konvensiyasi;
- 7) 1989-yil 10-noyabrdagi texnikaviy va hunar ta`limi to`g`risidagi konvensiyasiga
- 8) 1995-yil 16-noyabrdagi Bag`rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi va boshqalar.

Xullas qilib aytganda, BMT ning fan, ta`lim va madaniyat bo`yicha xalqaro tashkiloti YUNESKO o`z shakllanish jarayonida bir nechta bosqichni bosib aytdi. XX asrning oxiri XXI asr boshlaridagi jahon siyosiy xaritasidagi o`zgarishlar va tashkilotda amalga oshirilayotgan islohatlar YUNESKO nio`zaro yuqorida qayd etib o`tilgan tamoyillarga asoslangan demokratik tashkilorlarga asoslangan demokratik tashkilotga aylanib turli mafkuradagi davlatlar o`rtasida kurash maydonidan hozirgi davrdagi jahonning dolzarb muommolarni hal qilishga qaratilgan xalqaro maydonga aylandi.

I.2 O`zbekistonning YUNESKO xalqaro tashkilotiga a`zo bo`lishi.

Biz o`tgan 25 yillik mustaqil taraqqiyotimizni sarhisob qilar ekanmiz, tashqi siyosat va diplomatik xizmatni shakllantirish borasida amalga oshirilgan keng ko`lamli ishlarni ham alihida qayd qilish lozim. Ta`kidlash joizki, mustaqillik davrigacha respublika tashqi ishlar vazirligi apparatida bor-yo`g`I 10-15 naraf xodim bo`lib, ular nomigagina vazifasi hisoblangan ishlar, ya`ni protocol majburiyatlarini va turli, asosan chet-ellik mehmonlarni qabul qlish bilan shug`illanardi, xolos. Istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab o`ta muhim tashqi siyosiy masalalarni hal qilishga, avlatlararo siyosiy va iqtisodiy munosabatlar sohasida eng maqbul yo`llarni topishga to`g`ri keldi. G`oyat qisqa fursatda bu sohada Tashqi Ishlar Vazirligi, Tashqi Iqtisodiy Aloqa Vazirligi va boshqa qator davlat boshqaruv organlari tuzildi, diplomatic kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi yaratildi.²²

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimiz jahonga tinchliksevar tashqi siyosat bilan chiqishdi. O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi nufuzli davlatlar tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatic siyosiy, iqtisodiy, ilmiy texnikaviy va madaniy aloqalar o`rnatdi. Toshkentda 43 mamlakatning elchixonalari ochildi. Bular jumlasiga AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqalarn misol

²² Jo`rayev N. "Mustaqil O`zbekiston tarixi". T:G`ulom nomidagi nashriyot 581-bet . Toshkent. 2013-yil.

keltirish mumkin. Shuningdek, O`zbekistonda 88 xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko`rsatmoqda. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatlarda – AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Pokiston va boshalarda O`zbekistonning elchixonalari va konsulliklari ishlab turibdi. Bular mamlakatimiz xalqaro davlatlar tomonidan tan olganligini anglatadi. Mamlakatimizning qulay geosiyosiy o`rni, uning birinchi navbatda o`z milliy manfatlarini inobatga olgan holda olib borayotgan, har tomonlama chuqur o`ylagan, mustaqil va izchil tashqi siyosati davlatimizning jahon hamjamiyati tomonidan e`tirof etilishi, xalqaro maydonda obro`-e`tiborining ortib borishini ta`minladi. Hozirgi kunda O`zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom Konferensiyasi Tashkiloti, Yevroosiyo Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, YUNESKO xalqaro tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar qator ixtisoslashgan xalqaro tuzilmalar ishida faol ishtirok etib, mintaqaviy xavfsizlikni ta`minlash, Markaziy Osiyoda yadro quroldidan hali hudud barpo etish, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog`liq, shuningdek, xalqaro hamjamiyat oldida turgan boshqa dolzarb muommolarni hal etishga salmoqli hissa qo`shib kelmoqda.

Ma`lumki, O`zbekiston geosiyosiy jihatdan ancha murakkab va shu bilan birga qulay makonda joylashgan. Ya`ni, u birinchidan, Markaziy Osiyo mintaqasining tras=nspor, boy hamda mustaqil energetika omillari markazida joylashgan, Ikkinchidan, O`zbekiston aholi soni, ilmiy texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi qo`snilardan ma`lum darajada ustun turadi. Uchinchidan, O`zbekiston tabiiy-iqlim sharoitiga ega. Bu yerda qadimiy dehqonchilik madaniyati va boy mineral-xomashyo resurslari bor.²³ Shuningdek, jahon bozoriga yuqori sifatli, ekologik jihatdan sof, raqobatga bardoshli meva sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishga hamda ularni qayta ishlangan holda yetkazib berishga qodir. To`rtinchidan, davlatimiz nafaqat o`zini-o`zi taminlaydigan balki,

²³ Jo`rayev N. "Mustaqil O`zbekiston tarixi". T:G`G`ulom nomidagi nashriyot 584-bet . Toshkent. 2003-yil.

gaz va umuman, iqtisodiyotning asosi bo`lmish muhim tarmoqlarga ega. Beshinchidan, O`zbekistonning insoniyat svilizatsiyasida salmoqli o`rni bor. Yurtimiz ma`naviy-tarixiy merosga ega. U oldindan nafaqat mintaqada balki, dunyoda ham turli ma`naviy va siyosiy jaratonlarga, jahon svilizatsiyasiga kuchli ta`sir o`kazib kelgan. Shu jihatlarni hisobga olsak, O`zbekiston o`zining barcha ko`rsatkichlari bo`yicha jahondagi madaniy, ilmiy texnolgiya va iqtisodiy yuksaklikka erishib, bemolol Markaziy Osiyoda integratsiya markaziga aylanishi mumkin. Albatta, bu yo`lda qator qiyinchiliklar ham mavjud. Bular quyidagilar: Birinchidan, agar geografik strategic tarafdan olib qarasak, Markaziy Osiyoda kammunikatsiyalar nomaqbul rivoj topgani va uning tarmoqlari ancha buzilganligini ko`ramiz. Ikkinchidan, Markaziy Osiyoda suv resurslari cheklangan va Orol dengizi bilan bog`liq ekologik falokat ta`siri seziladi. Uchinchidan, mintaqada xavfsizlik tizimi alohida e`tiborni taqazo etadi.

Bu yerda atrofdagi kuchli davlatlar va siyosiy kuchliar markazlarning bir-biriga mos kelmaydigan ta`sir etish istaklari borligini ham hisobga olmasdan bo`lmaydi. To`rtinchidan, musulmon dunyosidagi ba`zi mamlakatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari ham ayni bizning xotirjam bo`lishga yo`l bermaydi. Beshinchidan, atrofimizda turli etnik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa muommolar ichida qolgan “uchunchi dunyo” davlatlari ham mavjud. Jumladan, beqarorlik va xavf-xatorning bugungi kundagi o`chog`I – Afg`oniston, Tojikiston, Qирг`изистон davlatlari ham shu mintaqada.²⁴ XXI asr bo`sag`asida dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlari tubdan o`zgardi, inson va insoniyat, odam va olam taqdiriga dahldorlik hissi tobora kuchaydi. XX asrning so`nggi o`n yilligi har qanday zo`rovonliklar, tazyiqlar va g`oyaviy xurijlarni aql-idrok va ochiqdan-ochiq munosabatlar orqali hal etish sari dadil qadam qo`yilgan davr bo`ldi.

O`zbekiston yosh mustaqil davlat sifatida o`z mavqeyi va nufuzini mustahkamlash bilan birga dunyo ahlini jahon siyosatini isloq qilishga da`vat etgan

²⁴ Jo`rayev N. “Mustaqil O`zbekiston tarixi”. T:G`G`ulom nomidagi nashriyot 585-bet . Toshkent. 2013-yil.

davlatlardan biri bo`lib maydonga chiqdi. Geografik –siyosiy o`rni jihatdan O`zbekiston Markaziy Osiyoning qoq o`rtasida joylashganligi ayni ana shu mintaqada barqarorlikni ta`minlash, o`zaro hamkorlik va birodarlikni chuqurlashtirish uchun tayanch nuqta bo`lib xizmat qildi. Mustaqillikning tarixan qisqa davrida u o`zining siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy qudratini to`la-to`kis ko`rsata oldi. Ayni ana shu mintaqaga taqdirini hal qilishga qodir bo`lgan kuchli davlat sifatida o`zini nomoyon etdi. Birgina bu emas: O`zbekiston Osiyo va Yevropa qit`alari o`rtasida munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, siyosiy iqlimni mo`tadillashtiruvchi G`arb va Sharq o`rtasidagi azaliy raqabatni aql-idrok, donolik, tafakkurga asoslangan munozaralar va muzokorolar orqali uyg`unlashtirishga da`vat etgan shu mintaqadagi yagona davlat bo`lib maydonga chiqdi. Darhaqiqat, bugun O`zbekiston Pokiston, Hindiston, Eron, Afg`oniston, Tojikiston, Qirg`iziston va Qozog`iston muommolarini bilan birga Rossiya va umuman Yevropa mamlakatlari munosabatlarini ma`lum bir o`zanga solishga da`vat qilayotgan, uni o`zining amaliy faoliyati bilan yaxshilash sari burishga katta ta`sir ko`rsatayotgan davlatadir.

O`zbekiston Prezidenti Islom Karimov dunyo muommolarini hal qilishning eng insonparvar tmoyillarini o`rtaga tashlar ekan u mintaqanviy mojarolar va qo`shni mamlakatlarni o`zaro kelishmovchilik muommolaridan tortib butun yer shari va insoniyat taqdiriga dahldor bo`lgan juda ulkan masalarni o`rtaga tashlamoqda.²⁵ Bu ayniqsa, xalqaro terrorizm va narkobiznes, diniy aqidaparastlik, ekstrimizm bilan bog`liq bo`lgan muommolar budun dunyo ahli hayotiga tahdid solayotgan eng og`ir fojiya ekanligini, u bilan murosa qilib bo`lmasligini, bu illatlarni barbod qilishda juda katta qat`iyat, siyosiy iroda va ichki qudrat kerakligini O`zbekiston o`z timsolida ko`rsatdi. Prerident Islom Karimovning “O`zbekiston Xxi asr bo`sag`aida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli kitobida va O`zbekiston Republika Oliy Maslisining birinchi chaqiriq XIV sessiyasida qilgan “O`zkiston XXI asrga intilmoqda” nomli ma`ruzasida xuddi ana

²⁵ Jo`rayev N. “Mustaqil O`zbekiston tarixi”. T:G`G`ulom nomidagi nashriyot 586-bet . Toshkent. 2003-yil.

shu muomolalarni keskin qilib qo`ydi. Xalqaro terrorizm va narkobisnesning o`zaro uzviyligi, bir-biriga bog`liqligi, uning tarqolishiga ba`zan diniy niqoblardan foydalanilayotganligi, natijada diniy aqidaparastlik va eksteremizning rivojlanib borayotganligi ilmiy jihatdan chuqur tahlil etilgan. O`zbekiston rahbarining ana shu har ikki asari davlatimizning yangi yuz yillik va yangi mingyillilikdagi siyosiy strategiyasini belgilaydi.

Mazkur kitobning dunyoning bir necha o`nlab mamlakatlariga tarjima qilib bosalganligi, siyosatchilari va davlat arboblarining bu kitob ko`tarilgan masalalarga bergan yuksak baholari, jahon jamoatchiligining katta qiziqish bilan unga qarayotganligi fikrimizning dalidir. O`zbekiston mustaqillikdan so`ng birlashgan millatlar tashkiloti va uning shofiyligidagi nufuzli tashkilotlar; jumladan, uning ta`lim fan, madaniyat sohasidagi tashkiloti – YUNESKO ga a`zo bo`lib kirdi. Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nutqida “Birlashgan Millatlar Tashkiloti barcha elatlarning, mintaqalarining eng muhim muommalarini muhokoma qilish va yechish uchun tuzilgan noyob tashkilotdir.²⁶ O`zbekiston Respublikasi o`zining xohish- irodasi va taklifiga ko`ra 1992-yil 2-martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot- Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to`la teng huquqli a`zosi bo`lib qoldi.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993-yilda bo`lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27-sentabrda qilgan ma`ruzasi O`zbekistonni jahonga yosh va navqiron davlat sifatida nomoyon etdi.²⁷ 1993-yil 24-oktabrda Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ochildi va u ish boshladi. O`zbekiston rahbariyati va BMT rahbarlarining say-harakatlari natijasida O`zbekiston BMT ning xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Qochoqlar ishi bo`yicha oily qo`mitasi, Jahon sog`lijni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqora aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, aholi joylashgan jamg`armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish

²⁶ Islom Karimov/ BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nutqi. /Xalq so`zi. 1993-yil № 27 (49)

²⁷ Jo`rayev N. “Mustaqil O`zbekiston tarixi”. T:G`G`ulom nomidagi nashriyot 594-bet . Toshkent. 2003-yil.

dasturi, Sanoat taraqqiyoti tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo`jaligi tashkiloti singari ixtisoslashgan muassasalarga a`zo obo`ldi. O`zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995-yil 15-16-sentabr kunlari Markaziy Osiyo xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag`ishlangan Toshkent kengash-seminari bo`lib o`tdi.

Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan muxtor vakillar mintaqa xavfsizligining, mojarolarni oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan qabul qilingan bayonot jahon xalqlarini, xususan Markaziy Osiyo xalqlarini, turli siyosiy kuchlarini mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, iqtisodiy va ekologik harakat tizimlarini barpo etishga chaqirdi. O`zbekistonning BMT bilan hamkorligining yorqin sahifalaridan biri Markaziy Osiyo mintaqasidan xoli zonaga aylantirish masalasida o`z ifodasini topdi.

O`zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasi minbaridan turib so`zlagan nutqidan xoli zonaga aylantirish masalasiga asosiy e`tibor qaratadi. 1997-yil 15-16-sentabr kunlari Toshkentda “Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli zona” mavzusida xalqaro konferensiya bo`lib o`tdi. Uning ichida 56 davlat va xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi. 2000-yil dekabr oyida Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, giyohvand moddalar tijorat, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurash mavzusida xalqaro konferensiya bo`lib o`tdi.

O`zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2001-yilda BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash bo`yicha maxsus qo`mitasi ta`sis etildi. 2002-yil 18-20-oktabr kunlari BMT Bosh kotibi Kofe Annanning O`zbekistonga tashrifi mamlakatimizning xalqaro jamiyaydagi o`rni mustahkamlanib, obro`-e`tibori ortib borayotganining dalilidir, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g`risidagi xalqaro pakt” ning BMT Bosh Assambleyasi 1989-yil 15-dekabrdan qabul qilgan o`lim jazosini bekor qilishga qaratilgan Fakul`tativ bayonnomasi barcha hukumatlarni o`lim jazosini bekor qilishga va bu haqida mazkur bayonnomani

imzolashga chorlaydi.²⁸ Hozirgi kunda ushbu bayonnomaga 61 mamlakat qo`shilgan. Har bir mamlakat bayonnomani ratifikatsiya qilish yoki unga qo`shilish chog`ida o`lim jazosi faqat urush holati vaqtida o`ta og`ir harbiy jinoyat sodir etganlarga qo`llanishi mumkinligi haqida eslatib o`tiladi. Inson huquqlari to`g`risidagi xalqaro hujjatlarning o`rni yana shu bilan belgilanadiki, unda umumjahon manfaatlariga xizmat qiladigan huquqiy me`yorlar mujassamlashgandir. Hozirgi kungacha inson manfaatlarini ko`zlab ko`plab xalqaro hujjatlar qabul qilingan bo`lib ular universal va mintaqaviy xarakter kasb etadi. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 70 ga yaqin, Yevropa Kengashi tomonidan 160 dan ziyod, YUNESKO tomonidan 70 dan ortiq, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti tomonidan 30 dan ortiq, turli mintaqaviy xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ko`plab inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, deklaratsiyar, paktlar qabul qilindi. Bugungi kunda hammasi bo`lib inson huquqlari bo`yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjat mavjud.

Bu xalqaro hujjatlarda inson huquqlariga oid jahon andozalari belgilab qo`yilgan va ularning milliy qonunlardan ustunligi tamoyili aksariyat davlatlar tomonidan tan olingan. Umuman olganda inson huquqlar va manfatlari himoyasi masalasi va bu sohada qabul qilingan xalqaro hujjatlarning vujudga kelishida Birlashlar Millatlar Tashkiloti ta`lim va madaniyat sohasi bo`yicha xalqaro tashkilot – YUNESKO ning o`rni beqiyos hisoblanadi. O`zbekistonning BMT homiyligidagi ta`lim, fan va madaniyat bilan shug`illanuvchi xalqaro tashkilot – YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993-yil 29-oktabrda YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida O`zbekistonni YUNESKO ga a`zolikka qabul qilish marosimi bo`ldi. O`sha kuni Ulug`bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1991-yil oktabrda Parijda Ulug`bek haftaligi tantana bilan o`tdi. Xiva va Buxoro YUNESKO ning jahon madaniy qadriyatlar ro`yxatiga kiritildi. Bu ro`yxatiga kiritildi. Bu ro`yxatda 411 ta obyekt bor.²⁹ 1994-yil dekabrda respulikamizda YUNESKO ishlari bo`yicha

²⁸ Устав ЮНЕСКО./Международные нормативные акты ЮНЕСКО М.Логос 1993-й

²⁹ Международные право в документах: Учеб.пособие.

O`zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi tashkil etildi; u idoralalararo organ bo`lib, tarkibiga ta`lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 kishi a`zo bo`ldi. YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o`rganish, tiklash va ommaviylashishga katta ahamiyat bermoqda. “Ipak yo`li – muloqot yo`li” deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyaga birinchi darajali ahamiyat berildi. 1995-yil iyul oyida YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. YUNESKO bosh direktori Federiko Mayorning O`zbekistondagi rasmiy tashrifi chog`ida 1995-yil iyul oyida mazkur institut ochildi. YUNESKO bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996-yil oktabrda Parijda Amir Temurga bag`ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo`lib o`tdi. Amir Temur tavallud topgan Shahrisabz shahri YUNESKO ning madaniy qadriyatlar ro`yxatiga kiritildi. 1997-yilda jahon madaniyatining durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko`rgazmalar o`tkazildi. Bu O`zbekiston bilan BMT ning nufuzli xalqaro tashkiloti – YUNESKO o`rtasidagi hamkorlikning yana bir yorqin ifodasi bo`ldi.

1997-yil 19-20-oktabr kunlari vatanimizda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan o`tgan ulkan tantanalardan BMT, YUNESKO va boshqa ko`plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning elchilari va vakillari, bir qator mehmonlar ishtirok etdilar.³⁰ YUNESKO ning maqsadi insoniyatning aql-zakovati va ahloqiy birligiga asoslangan barqaror tinchlikni barpo etish bo`lib, “eng muhim insonparvarlik masalalariga ijodiy yondoshadigan o`ziga xos, betakror xalqaro tashkilot hisoblanadi. Uning faoliyati dunyo madaniyatini rivojlantirishga, barqaror taraqqiyot va inson taraqqiyoti uchun xalqaro ilmiy dasturlar tuzilishiga ko`maklashadi, milliy madaniyatlarning ravnaq topishiga yordam beradi. Dunyoviy me`ros hisoblangan moddiy va ma`naviy boyliklarni saqlash va

Сост.! Н.Т Влотова, З.М.Мелков. – 2-е изд. перераб. И доп

М:Инфра, 1997-й С-103

³⁰ O`zbekistonning yani tarixi. Uchinchi kitob. T: Sharq nashr. 2000-yil

ko`paytirishga shuningdek, axborotlar oqimi va matbuotni erkin taraqqiy etishga yordam beradi, rivojlanayotgan davlatlarda kommunikatsiya imkoniyatlarini oshirishga ko`maklashadi. Hozirda YUNESKO ning norma ijodkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish bilan birga, ushbu hujjatlarning qat`iyligini ham kuchaytirish zarur deb hisoblaydi. YUNESKO hujjatlarini tahlil qilganimizda ushbu hujjatlarning ishslash mexanizmi samaradorligini yetarli ravishda kuch bilan ta`minlanmaganligini ko`ramiz. YUNESKO doirasida ishlab chiqilgan va qabul qilingan xalqaro hujjatlarga O`zbekistonning qo`shilishi madaniy boyliklarimizning jahon hamjamiyati tomonidan xalqaro huquqiy himoya qilinishiga, O`zbekistonning ilmiy potensiali, fani, madaniyati, tarixiy dasturlari, noyob arxeologik va ma`naviy majmularini, milliy va ma`naviy durdonalarini targ`ib qilishga va bu sohadagi ishlarning samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar ohib berish bilan birga ushbu sohaga tegishli qonunchiligidizning yanada rivojlanishiga shuningdek, O`zbekistonda ta`lim, fan, madaniyat, informatika va kommunikatsiya texnologiyalarining yanada taraqqiyot sari rivojlanib, jahondagi eng ilg`or va nufuzli davlatlar qatoridagi o`z o`rnida mustahkam qolishiga yordam beradi.

YUNESKO ishlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Millay komissiyasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrdagi № 629-sonli qarori asosida tashkil topgan.³¹ Komissiyaning asosiy maqsadi va vazifalari, faoliyati va moliyaviy mablag`lari bo`yicha muassasasining nizomida aks ettirilgan. YUNESKO ishlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy Komissiyasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilgan hukumat tashkilot hisoblanadi. Tashkilotning ushbu tuzilmasi vazirlar va idoralar o`rtasidagi hamkorlik samaradorligi va o`zaro qo`llab-quvvatlashni ta`minlaydi hamda komissiyaning turli xil milliy va malqaro nodavlat tashkilotlari bilan faoliyatlarini muvofiqlashtirishda yordam beradi. Milliy komissiya tuzilgandan buyon, u YUNESKO dastur va loyihamonini amalga oshirish, ushbu tadbirlarga milliy salohiyatni jalb qilish hamda YUNESKO

³¹ Toshkent s. h., Vazirlar mahkamasining 1994-yil 29-dekabrdagi 629-son qaroriga 2-Illova.

vakolati doirasida milliy, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo`shib kelmoqda. 1998-yil 6-noyabrda Toshkentda YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yahudiy yig`ilishi bo`lib o`tdi. Unda sessiyada qabul qilingan uchta hujjatning so`nggisi imzolandi. Bu uchinchi hujjat O`zbekiston tomonidan qabul qilingan “ Dunyoviy madaniyat va YUNESKO ning a`zo mamlakatlardagi faoliyati’ deb nomlangan loyiha edi.³² Sessiyaning yakuniy yig`ilishini va Ijroiya Kengashi raisi Pol Potahi ochdi. Rais sessiya kun tartibiga O`zbekiston tomonidan kiritilgan hujjatning ahamiyati haqida gapirar ekan, uning dunyoviy madaniyat shakllanishida muhim omillardan biri bo`lib qolishini takidladi. Shuningdek, hujjat muhokamasini O`zbekistonda o`tkazish taklifi ko`pchilik tomondan mamnuniyat bilan qabul qilinganini qayd etdi. Sessiyada O`zbekiston Prezidenti Islom Karimov nutq so`zladi. YUNESKO ning o`sha paytda Bosh deriktori Federiko Mayor sessiyaning yakuniy yig`ilishini O`zbekistonda o`tkazish taklifini bildirgani uchun Prezident Islom Karimovga, anjuman qatnashchilari va tashkilot nomidan minnatdorlik izhor qildi. Xulosa qilib aytganda, O`zbekistonning YUNESKO ga a`zo bo`lishi muhim ahamiyat kasb etdi.

³² Jo`rayev N. “Mustaqil O`zbekiston tarixi”. T:G`G`ulom nomidagi nashriyot 661-bet . Toshkent. 2003-yil.

II-BOB. O`zbekistonning YUNESKO xalqaro tashkiloti bilan ilm-fan, madaniyat sohalaridagi aloqalari

2.1 O`zbekistonning YUNESKO xalqaro tashkiloti bilan ilm-fan, kommunikatsiya va axborot sohasidagi aloqalari.

O`zbekistonning YUNESKO xalqaro tashkiloti bilan ilm-fan, kommunikatsiya va axborot sohasidagi o`zaro aloqalari yildan-yilga kengayib bormoqda. BMT tomonidan qabul qilingan “Ta`lim barcha uchun” (2000-2015-yy), “Savodxonlik o`n yilligi” (2002-2003-yy) va “Barqaror taraqqiyot ta`limi o`n yilligi” (2004-2015-yy) dasturlari ta`lim sohasidagi asosiy yo`nalishlar hisoblanadi. YUNESKO tashkiloti ushbu dastutlarni amalga oshirish bo`yicha yetakchi tashkilot hisoblanadi.

Oily ta`lim (1998-yil, 2009-yil), kasb – hunar ta`limi (1999-yil) va katta yoshdagilar ta`limi (1997-2009-yil) bo`yicha YUNESKO tomonidan xalqaro anjumanlar tashkil etilgan va maxsus tavsiyanomalar qabul qilingan.

YUNESKO kafedralari: YUNESKO kafedralari dasturi 1997-yilda boshlangan. Mazkur dasturning asosiy maqsadi – Oliy ta`lim muassasalarida maxsus tadqiqotlarni rivojlantirish hamda xalqaro miqyosda mazkur fan sohasidagi mutaxasislarning bilim va tajriba almashinuvini qo`llab-quvvatlash. Hozirgi paytda, Milliy komissiya ko`magida quyidagi 10 ta YUNESKO kafedrasi O`zbekistonning Oliy ta`lim muassasalarida tashkil etilgan.

1. Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti qoshidagi “Fizika va astranomiya” YUNESKO kafedrasi (1998-yil);
2. Juhon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti qoshidagi “Inson huquqlari, tinchlik, demokratiya, bag`rikenglik va xalqaro hamjihatlik” YUNESKO kafedrasi (1998-yil);
3. Samarqand davlat arxetektura va qurilish instituti qoshidagi “Tarixiy markazlarni saqlash va boshqarish” YUNESKO kafedrasi (1999-yil);
4. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti qoshidagi “Avtomatlashgan axborot texnologiyalari nomli YUNESKO kafedrasi (1999-yil);
5. Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti qoshidagi “Fuqorolik va qadriyatlar ta’limi” YUNESKO kafedrasi (1999-yil);
6. Toshkent Islom Universiteti qoshidagi “Jahon dinlarining qiyosiy tadqiqoti” YUNESKO kafedrasi (1999-yil);
7. Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro tibbiyot instituti qoshidagi “An`anaviy tibbiyot” YUNESKO kafedrasi (2000-yil);
8. Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti qoshidagi “Ekologik kimyo” YUNESKO kafedrasi (2003-yil);
9. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti qoshidagi “San`at boshqaruvi va marketing” YUNESKO kafedrasi (2004-yil);
10. Toshkentdagi xalqaro Vestminster Universiseti qoshidagi “Bilimlar iqtisodiyoti” YUNESKO kafedrasi (2004-yil)

2008-yilda Toshkent shahrida YUNESKO kafedrasi mutaxassislari uchun mashg`ulotlar tashkil etildi. To`qqizta YUNESKO kafedrasiga Milliy komissiya tomonidan, YUNESKO qatnashuv dasturi doirasida, maxsus kompyuter uskunalarini taqdim etildi. YUNESKO kafedralari har yili o`z faoliyati bo`yicha yillik hisobotni

Milliy komissiyaga taqdim etadi va ushbu hisobotlar YUNESKO kotibiyotiga yuboriladi.

Kasb – hunar o`quv muassasalari tarmog`i (YuNEVOK);

2004-2006-yillarda O`zbekistonda YUNESKO ning “Kasb – hunar ta`lim sohasidagi ko`chma guruhi” loyihasi amalga oshiriladi. O`zbekiston mutaxassislari kasb-hunar ta`lim sohasidagi Avstraliya, Koreya Respublikasi, Tailand kabi davlatlar tajribasini o`rganishga muvaffaq bo`lishdi. Loyiha doirasida O`zbekiston viloyatida o`quv-seminarlar hamda “Ijtimoiy hamkorlik va ko`chma kasb-hunar ta`lim guruhi” mavzusidagi ilmiy anjuman tashkil etildi. Anjumanda o`zbekistonlik mutaxassislarning hisoboti taqdim etildi va kasb-hunar ta`lim sohasidagi xorijiy mamlakatlar tajribasini taqdim etish masalalari ko`rib chiqildi. Ushbu tadbirlarning davomi sifatida, Yevropa Ittifoqining Tasis dasturi doirasida 2006-2007-yillar davomida “Kasb-hunar ta`lim sohasida ijtimoiy hamkorlik” loyihasi O`zbekistonda amalga oshiriladi. Loyihaning ustuvor maqsadidan biri O`zbekiston kasb-hunar ta`lim sohasida yangi siyosatni joriy etdi.

1953-yilda asos solingan YUNESKO ning Birlashgan maktablar dasturi tarmog`i YUNESKO ning ta`lim sohasidagi asosiy dasturi hisoblanadi. Dasturning asosiy maqsadi xalqaro hamjihatlik, tinchlik, madaniyatlararo muloqot va barqaror taraqqiyot g`oyalarini targ`ib etish hamda ta`lim sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu tarmoqni O`zbekistonda rivojlantirishda YUNESKO ishlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi faol ish olib bormoqda 1996-yildan tarmoqqa O`zbekistonning 45 ta ta`lim muassasasi a`zo bo`lgan.

Ta`lim muassasalari bir qator xalqaro dasturlarda muvaffaqiyatli qatnashib, “Ta`lim barcha uchun” maqsadlarini va BMT ning barqaror taraqqiyot ta`limi o`n yilligini targ`ib etib kelmoqda. “Barcha uchun umr bo`yi ta`lim”, “Fan taraqqiyot xizmatida”, “Madaniyat taraqqiyoti: me`ros va ijod” kabi dasturlar va ma`muriy xarajatlarga sarflanadi. Birlashgan maktablari YUNESKO ning dasturlarida faol qatnashib kelmoqda. Ulardan “Patrimonito”, “Mandialgo” va o`quvchilar

almashuv dasturlari. Birlashgan maktablar tarmog`iga a`zo Zarafshon shahridagi 1-sonli ixtisoslashgan maktabi 2006-yilda YUNESKO ning Mondiolog maktabi tanlovida g`olib deb topildi. 2006-yilda Toshkent shahridagi 17-sonli maktabi “Barqaror taraqqiyot ta`limi” mavzusidagi YUNESKO ning Osiyo va Tinch okeani mintaqasi tanlovida g`olib deb topilib, maxsus faxriy yorliq bilan taqdirlandi. YUNESKO ning “Suv va tabiiy manbalarni boshqarish” (Toshkent shahridagi 17-son maktab) va “Sahroda oazis yaratish” (Zarafshon shahridagi 1-son ixtisoslashgan maktab) loyihasi YUNESKO ishlari bo`yicha Koreya Respublikasi Milliy Komissiyasi Osiyo va Tinch okeani mintaqasida barqaror taraqqiyot ta`lim doirasida 2009-yilning eng ilg`or tajriba loyihalarri deb topildi. YUNESKO nashrlari o`zbek tilida tarjima qilinib, tarmoq maktablari orasida tarqatildi³³: - “Butunjahon merosi yoshlar qo`lida”; - “Bag`rikenglik – tinchlik sari olg`a qadam”; - “Demokratiya: 80 savolga 80 javob”; - “Har bir inson” va hakazo.

O`zbekistonda ta`lim tizimiga yangi innovatsion uslublarni joriy etish maqsadida bir qator o`quv seminarlar o`tkazildi: * “Ta`limda boshqaruva va axborot tizimlari” mavzusidagi milliy seminar (2005-yil dekabr); * Osiyo va Tinch okeani mintaqasi YUNESKO madaniy markazi bilan hamkorlikda “Inklyuziv ta`limni shakllantirish” bo`yicha o`quv kurslari (2006-2007-yillar) * YUNESKO va YuNISEF qo`sishimcha FRESH loyihasi doirasida “Ta`lim muassasalarida sanitoriya va gegcha” mavzusidagi o`quv seminarlar (2005-yil noyabr, 2007-yil sentabrda) : * Xalq ta`lim vazirligi, YUNESKO ning Toshkentdagি vakolatxonasi, YuNISEF ning O`zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Ta`lim barcha uchun” halokat dasturining o`rta muddatli tahlili bo`yicha milliy forum (2006-yil 18-avgust).

Loyihaning davomi sifatida 2007-yilning 10-12-sentabr kunlari Toshkent shahrida inklyuzev ta`limb bo`yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy seminari o`tkazildi.

1997-yilda qabul qilingan kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq, O`zbekiston Respublikasida uzlusiz ta`lim tizimi joriy etildi. Ushbu islohatlarni

³³O`zbekiston milliy enksiklopediyasi. Toshkent. 2005-y 318-319-bet.

qo`llab-quvvatlash maqsadida 1998-yildan boshlab Jamoat ta`lim markazlari (JMT) nomli YUNESKO loyihasi O`zbekistonda amalga oshirishi boshlandi. Loyiha YUNESKO ning Osiyo va Tinch okeani mintaqasi “Ta`lim barcha uchun” dasturi doirasida qo`llab-quvvatlangan edi. Hozirgi davrda O`zbekiston Respublikasidagi Birlashgan maktablar tarmog`I a`z obo`lgan muassasalar qoshidagi 10 ta jamoat ta`lim markazlari tashkil etildi. YUNESKO ning Bankokdagi vakolatxonasi hamda Xalq ta`lim vazirligi bilan hamkorlikda “Aholining imkoniyaytlarini kengaytirish uchun axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish” va OITS va OITV ni oldini olish “bo`yicha ta`lim dasturini 1999-2006-yillarda amalga oshirildi. Loyihalar doirasida multimidea o`quv dasturlari yaratilda tegishli muassasalarga tarqatildi, hamda ushbu mavzuda ilmiy anjumanlar tashkil etildi. 2004-2005-yillarda YUNESKO qatnashuv dasturi doirasida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida katta yoshdagilar ta`lim markazini tashkil etish qo`llab-quvvatlandi. Markaz tomonidan, 2004-2005-yillar davomida katta yoshdagilar uchun o`quv dasturlari tashkiletildi va to`rtta o`quv qo`llanma ishlab chqildi va nashr etildi.³⁴

YUNESKO ning fan dasturi doirasida biologic turfa xillikni asrash va tabiiy fanlardan biologiyani rivojlantirish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni qo`llab-quvvatlash, madaniy qadriyatlarni asrashga bag`ishlangan loyihalar amalga oshirildi. O`zbekistonda YUNESKO ning quyidagi xalqaro dasturlari bo`yicha milliy qo`mitalar, jamoatchilik asosida tashkil etildi: * Xalqaro gidrologiya dasturi; * “Inson va biosfera”; * “Bioetika, Most (Ijtimoiy islohotlarni boshqarish)”.

1999-yilda Budapesht shahrida o`tkazilgan fan bo`yicha xalqaro anjuman mintaqaviy harakat dasturini ishlab chiqish maqsadida 1998-yilning 21-22-oktabr kunlari Toshkent shahrida “Fundamental fanlar jamiyat xizmatida” mavzusidagi mintaqaviy 25 nafar olim ishtiroy etdi. O`zbekiston mutaxasislari fan sohasidagi quyidagi YUNESKO uchrashuv va anjumanlarda muvaffaqiyatli ishtiroy etdilar: *

³⁴ Birlashgan Milltlar Tashkiloti. Toshkent – 2011-yil. 176-177-bet.

Fan bo`yicha Osiyo va Tinch okeani mintaqasi anjumani (1998-yil. Sidney, Avstraliya); * Fanda gendez tengligi va adolatlik bo`yicha Yevropa mintaqaviy Anjuman (1998-yil. Slavakiya); * Ijtimoiy fanlarning dolzarb muommolari bo`yicha Osiyo va Tinch okeani mintaqasi maslahat uchrashuvi (2001-yil. Bangkok, Tailand);* Barqaror taraqqiyot uchun fan va texnologiya siyosati bo`yicha xalqaro forum (2005-yil. Tehron, Eron); * Ilmiy va texnologik bog`larni rivojlantirish bo`yicha Osiyo va Tinch okeani mintaqasi seminari (2005-yil. Bangkok, Tailand) hakazolar.

“Jahon xotirasi” dasturi 1992-yilda ta`sis etilgan. “Jahon xotirasi” dasturi bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi qoshida tashkil etilgan. “Jahon xotirasi” dasturining asosiy maqsadi dunyodagi noyob hujjatlarni asrash va ushbu butunjahon merosini keng ommalashtirish va undan foydalanishga imkoniyat yaratish. Hujjatli merosini saqlash bo`yicha Markaziy Osiyo mintaqasi birinchi anjumani va “Jahon xotiras” dasturi xalqaro maslahat qo`mitasining uchunchi uchrashuvi Toshkent shahrida tashkil etildi. O`zbekiston Respublikasining quidagi hujjatli merosi “Jahon xotirasi” dasturining xalqaro ro`yxatiga kiritilgan: * Muqaddas Usmon Qur`oni (O`zbekiston musulmonlar idorasida saqlanadi); * O`zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institute qo`lyozmalar to`plami: YUNESKO ning 2007-yilda qatnashuv dasturi doirasida Navoiy nomidagi O`zbekiston Davlat kutubxonasida qo`lyozmalarni asrash uchun raqamli studiya taratishda yordam ko`rsatildi. “Raqamli kutubxonalarni rivojlantirish: muommolar va yondashuvlar” mavzusida milliy anjuman tashkil etildi. YUNESKO Bosh direktori taklifiga binoan O`zbekiston YUNESKO ning “Jahon xotirasi” dasturi xalqaro maslahat qo`mitasi 2005-2009-yillarda a`zo bo`lib tayinlandi. Shuningdek, 2014-yilda Samarqandda, “O`rta asrlarda Sharq allomalarining ilm-fan sohasiga qo`shgan hissasi” mavzusida xalqaro seminar-kengashi bo`lib o`tdi. Xulosa qilib aytganda, YUNESKO xalqaro tashkilotining ilm-fan, axborot-kommunikatsiya sohasidagi harakatlari samarali bo`lib o`tdi.

II.2 O`zbekiston va YUNESKO xalqaro tashkiloti bilan madaniyat sohasidagi aloqalari.

O`zbekiston va YUNESKO hamkorlik madaniy-ma`rifiy merosni qayta tiklash masalalarida ham mohiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. YUNESKO bilan hamkorlikda tuzilgan bitimlar orasida buyuk allomalarimiz, mutafakkir va davlat arboblari, shoir va diniy talimat nomoyondalarining yubeley jahon miqyosida keng nishonlanmoqda. Bu borada: 1994-yil – buyuk astranom va davlat arbobi jamoatchilik doirasida o`tkazildi. 1996-yil – buyuk davlat arbobi, sarkarda, ma`naviyat va madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo`shgan alloma sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi nishonlandi. Bu tadbir haqida keyinroq to`xtalamiz.

1997-yil-qadim va doim navqiron Buxoro va Xiva shaharlarimizning 2500 yilligi nishonlandi. 1998-yil- buyuk alloma Ahmad al-Farg`oniyning 1200 yilligi, 1998-yil-buyuk hadisshunos olim Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 998-yil-buyuk alloma Ahmad al-Farg`oniyning 1200 yilligi, 1998-yil-buyuk hadisshunos olim Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, 1999-yil Markaziy Osiyo va Sharq xalqlarining so`nmas ijodi bo`lmish “Alpomish” dostonining 1000 yilligi, 2000-yil Sharq miniature maktabining asoschisi Kamoliddin Behzodning 545 yilligi, 2001-yil Markaziy Osiyo xalqlari ijodi mahsuli bo`lmish muqaddas

“Avesto” yaratilganligining 2700 yilligi, 2001-yil qadim Termiz shahrining 2500 yilligi nishonlash to`g`risida qaror bilan 2002-yilda Termiz shahrining yubeleyi o`tkazildi. Barchamizni quvontiradigan tadbirlar qatorida Sharq allomalarning nodir va noyob asarlari o`zbek va xorijiy tillarda nashr etildi. Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg`oniy, Muhammad at-Termizi, Imom Abu Mansur Moturidiy, Muhammad az-Zamaxshariy, Amir Temur, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirzo Ulug`bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod va boshqalarning mumtoz asarlaridan bahramand bo`lmoqdamiz. E`tiborli tadbirlar qatorida 100 dan ortiq yirik yodgorlik, me`moray muzey va tarixiy madaniy majmualar qayta tiklandi va yangidan qurilganligi madaniy yuksalishimiz qadimiy an`anaviy bayram va boshqa turdagı milliy qadriyatlarimizni yangidan tiklashga sharoit yaratdi. Yangicha mustaqillik madaniyatini qurishga zamin barpo etildi. Bular turkumiga quyidagilar kiradi: O`zbekiston Respublikasi mustaqillik kuni; - Konstitutsiya- bosh qomusimiz kuni; - O`qituvchi va murabbiylar kuni; - Navruz milliy bayramimiz; - Vatan himoyachilari kuni; - Xotira va qadrlash kuni; - Ramazon va qurban hayitlari kabi bayram va tantanalar nishonlanmoqda.³⁵

Bu borada diniy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi, Toshkent Islom Universitetining ochilishi o`zbek davlat Konservatoriyaning milliy bezak hamda jahon standartlari andazalariga xos ravishda bunyod etilishi, B.Britaniya hamkorligida Toshkent Vestminster Universitetida faqat ingliz tilida olib boriladigan o`quv tizimida Respublikamizning turli viloyatlaridan qabul qilingan iqtidorli talabalar tahsil ko`rayotganligi diqqatli hisoblanadi. Hozirgi kunda O`zbekistonda 1800 dan ortiq masjid-xonaqolarning faoliyat ko`rsatishi 15 turdagı islomiy diniy tashkilotlarning rasman ishlab turishi diqqatga sazavordir. An`anaga aylanib “Xalqaro bag`rikenglik kuni” ning har yili 16-noyabrda nizonlanishi mustaqillik va istiqlol madaniyatining nomunasidir.

O`zbek xalqining azaldan o`z mustaqil fikri, o`z istiqloli uchun kurashib kelganligidan guvohlik beradi. Mustaqillik yillarida eski Termiz yodgorliklari

³⁵ O`zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O`zbekiston tarixi. T-Sharq. 2000-yil.

majmuidagi buddaviylik monastrlaridan biri Fayoztepani saqlash, qisman ta`mirlash va obidani sayyoqlik markaziga aylantirilishi borasidagi muhim ishlar amalga oshirildi. Fayoztepada 2004-2006-yillar davomida O`zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi, Yaponiya Trans fondi, YUNESKO hamkorligida Fayoztepada buddaviylik monastri arxeologik jihatdan qayta o`rganildi va qisman ta`mirlandi. Ayniqsa obida yonida sayyoohlarga mo`ljallangan mozor binoning barpo etilishi va unda Fayoztepa haqida ko`rgazmalarning namoyish etilisheski Termizni sayyoqlik maskaniga aylantirishda muhim bo`ldi. Eski Termiz nafaqat arxeologiya, balki me`moray inshoatlar ham o`zida mujassam etgan qadimiy shahardir. 2006-yildan buyon Surxondaryo viloyati hokimligi O`zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi loyihasi asosida at-Termiziy maqbarasi majmuida tubdan ta`mirlash va abadiylashtirish ishlari olib borilmoqda. Eski Termiz hududida amalga oshirilgan bu kabi ishlar O`zbekistonbu qadimgi shaharni xalqaro sayyoqlik maskanlaridan biriga aylantirishda muhim bosqich bo`lib xizmat qildi.

Har yili 14-fevralda an`anaviy ravishda mumtoz shoir tavalludiga bag`ishlab mamlakatimiz boburshunoslari, oliygoh, kollej va litsey talabalari hamda Bobur ixlosmandlari ishtirokida u tavallud topgan Andijon shahrida ilmiy badiiy anjuman o`tkazildi. Fond qoshida tashkil etilgan xalqaro ilmiy ekspeditsiya 1992-yil may oyida o`zining birinchi safariga chiqqan edi. Shu kungacha ekspeditsiya 15 marotaba 30 dan ortiq xorijiy davlatlarga xalqaro safarlar uyushtirilib, Afrika qit`asidan Hind-Xitoy yarim oroli, Yevropa, Amerika mamlakatlariga 400 ming km dan ortiq masofa avtomoshina va qisman samolyotda bosib o`tib, vatanimizdan yetishib chiqqan buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy-madaniy meroslarni o`rganib kelmoqda. YUNESKO boshchiligidagi YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida o`tkazilgan tadbirlar:³⁶ * 1993-yil 29-oktabrda YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida Ulug`bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. * 1993-yil 11-dekabr YUNESKO ning qarori bilan Xiva va

³⁶ "O`zbekiston va YuNESKO hamkorligi izchil rivojlanmoqda" Ma`rifat gazetasi. 2012-yil 3-noyabr, № 87 (8528). 2,4-betlar.

Buxoro jahonning madaniy qadriyatlar tizimiga kiritildi. * 1995-yil iyul oyida YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro institute tashkil etildi. * YUNESKO boshchiligidagi xalqaro miqyosda bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlashga qaror qildi va 1996-yil oktabrda Parijda Amir Temurga bag`ishlangan anjuman bo`lib o`tdi. * Amir Temur tavallud topgan Shahrisabz shahri YUNESKO ning madaniy qadriyatlar ro`yxatiga kiritildi. * 1997-yilda jahon madaniyatining durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko`rgazmalar o`tkazildi. * 1998-yil Ahmad al-Farg`oniyning 1200 yilligiga bag`ishlangan marosim o`tkazildi. 1999-yil Alpomish dostonining 1000 yilligi nishonlandi. * 1999-yil Jaloliddin Manguberdining 800 yilligi nishonlandi. * 2001-yil “Avesto” muqaddas kitobining 2700 yilligi nishonlandi. * 2001-yil mart oyida – YUNESKO bosh direktori qarori bilan “Shaharlar tinchlik uchun” tanlovida jahonning 10 ta shahri g`olib deb topildi. Ular orasida Buxoro shahri ham bor edi. ³⁷:

Nomoddiy madaniy meros sohasidagi quyidagi dasturlar YUNESKO bilan hamkorlikda o`tkazilgan:

- ✓ “Folklorni va an`anaviy madaniyatni saqlash” bo`yicha mintaqaviy anjuman (Toshkent, 1998-yil);
- ✓ 2002-2005-yillarda “Boysun bahori” folklori festivallari va “Boysun madaniy merosi” mavzusidagi mintaviy ilmiy anjuman (2005-yil);
- ✓ 2005-2007-yillarda amalga oshirilgan Boysun madaniy makoni va Shashmaqom musiqasi bo`yicha hujjalashtirish loyihasi;
- ✓ 2004-2005-yillarda YUNESKO ning qatnashuv dasturi doirasida “Ipak yo`li hikoyalari” va “Ipak yo`li rivoyatlari” kitoblari chop etildi;
- ✓ Xalqaro har yili ona tili kunini nishonlashga bag`ishlangan davra suhbatlari tashkiletildi.

³⁷ O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. Davlat amaliy nashriyoti-2005-yil. 318-319 betlar.

- ✓ Nomoddiy madaniy merosni saqlash merosni saqlash bo`yicha shaharlararo hamkorlik tarmog`I muvofiqlashtirildi;
- ✓ Katta ashula (2009-yil);
- ✓ Navruz (2009-yil);
- ✓ “Bayram mintaqasi madaniy muhiti” (2001-yil);
- ✓ “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali va hakazo...

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan “Sharq taronalari”³⁸ xalqaro musiqa festivali 1997-yildan har ikki yilda bir marta YUNESKO rahnamoligida Samarqand shahrida o`tkazib kelinadi. Ushbu festival jahonning yirik madaniyat tadbirlaridan biridir.

Musiqa festivalining asosiy maqsadlari mumtoz musiqa namunalarini ommaviylashtirish, xalqlarning buyuk an`analarini asrash va kelajak avlodlarga yetkazish, xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirishdan iboratdir. Yuqorida nomlari zikr etilgan O`zbekistonda YUNESKO tomonidan amalga oshirilgan madaniy tadbirlarga kengroq to`xtalib o`tish joiz hisoblanadi. Buyuk Sohibqiron Amir Temurning davlatchiligidagi xizmatlari buyukdir. Ulug` bobomiz Amir Temur hayotlik chog`larida Ko`ragon, Sohibqiron, Qutbiddin, bulmansur unvonlariga sazavor bo`lib, katta hurmat-e`tabor, izzat-ikromga erishganlar. Bu unvonlarning har biri qutlug` ma`nolarga ega bo`lgan va bobomiz hayoti, ulug` fazilatlari, Benazir iqtidori, salohiyati, qobiliyati bilan bog`liq bo`lgan.³⁹ Amir Temur o`z davrida nafaqat O`rta Osiyo, balki butun Yevropa tinchligiga, fannmadaniyatiga katta hissa qo`shdi. U kishining bu xizmati butun dunyoda e`tirof etildi. YUNESKO xalqaro tashkiloti rahnamoligida O`zbekistonda va YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi. 1996-yil 18-oktabrda Toshkentda Temuriylar davlati tarixi muzeyi ochildi, O`sha kuni Amir Temur tug`ilgan Shahrisabzda va Sohibqiron davlatining poytaxti bo`lgan Samarqandda Amir Temurga haykal qo`yildi. 1996-yil mamlakatimizda Amir Temur yili deb e`lon qilindi. O`zbekiston Reapublikasi

³⁸ “O`zbekiston va YuNESKO hamkorligi izchil rivojlanmoqda”. 2012-yil 2,4 – bet

³⁹ Choriyev Ahmadjon “Sohibqiron ma`naviyati” T: “Yangi avlod nashriyoti” 2011-yil. 122-bet

Prezidenti Islom Karimov 1996-yil 24-aprel kuni YUNESKO qarorgohidagi “Temuriylar davridagi ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi” ko`rgazmasining ochilish marosimida so`zlagan nutqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “...O`zbekiston xalqi Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniyada, boshqa g`arb mamlakatlarida Amir Temur shaxsi bilan qiziqish hech qachon so`nmaganligiga minnatdorlik bilan qaraydi. Bu yerda XV asrdayoq Amir Temurga yodgorlik o`rnatilib, unga “Yevropaning xaloskori” degan chuqr ramziy ma`noli so`zlar yozib qo`yilgan”⁴⁰. Shuningdek, yurtboshimiz Islom Karimov o`zining “Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir” deb nomlangan Temuriylar tarixi Davlat muzeysi ochilish marosimida so`zlagan nutqida, “Azaliy buyuklik maskani” deb nomlangan Samarqand shahrida Amir Temur haykalining ochilish marosimida, “Sohibqiron kamolga yetgan yurt” deb nomlangan Shahrisabz shahrida Amir Temur haykalining ochilish marosimida, hamda “Amir Temur-faxrimiz, g`ururimiz” deb nomlangan 1996-yil 24-oktabrda Amir Temurning 660yilligiga bag`ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyada Amir Temurning O`rta Osiyo va butun dunyoda tutgan o`rni va roli haqida to`xtalib o`rganlar.

1994-yili YUNESKO qarori bilan Buyuk Amir Temurning nabirasi, rivojlangan o`rta asrlarda ilm-fan, madaniyatga beqiyos hissa qo`shgan Muhammad Tarag`ay – Mirzo Ulug`bek tavalludining 600 yilligi keng nishonlandi. Mirzo Ulug`bek temuriyzodalar ichida fan va madaniyat taraqqiyotiga eng ko`p va salmoqli hissa qo`shgan hukmdordir. U Samarqandda birinchi falakiyotshunoslik akademiyasiga asos slogan siymo sifatida dunyoda nom taratadi. Mirzo Ulug`bek Buxoro, G`ijdivon, Samarqandda madrasalarda ilm-fanning rivojlanishiga katta hissa qo`shgan.⁴¹ 1994-yili mamlakatimizda Mirzo Ulug`bekning 600 yilligi katta tantana bilan nishonlandi. Samarqandda Mirzo Ulug`bek rasadxonasi yonida Mirzo Ulug`bekka atab haykal o`rnatildi. 1994-yil Mirzo Ulug`bek yili deb e`lon qilindi. President I.Karimov o`zining “Yuksak

⁴⁰ I.A.Karimov “Yangicha fikrlash ishlash-davr talabi” Asarlar – 5-jild. T: 1997-yil.

⁴¹ U.Sanaqulov.M.Xandanova.Q.Makarankov “Amir Temur saltanatining donishmand vorisi” T.: 2014-yil.

ma`naviyat yengilmas kuch”asarida Mirzo Ulug`bek haqida quyidagi fikrni bildiradi: “Buyuk Amir Temurning nabirasi, Benazir alloma Mirzo Ulug`bekning o`rta asrlar sharoitida nomoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlaarini ham hayratga solmasdan qo`ymaydi...

Bu haqda so`z yuritar ekanmiz, beixtiyor 1996-yili Parijda YUNESKO ning o`sha paytdagi Bosh kotibi Federiko Mayor janoblari bilan bo`lgan bir suhbat yodimga tushdi. O`shanda, janob Mayor Ulug`bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda kompyuter yordamida tekshirib ko`rilganda atigi bir necha daqiqa farq qilishi aniqlandi, degan gapni aytib qoldi, shunda men unga javoban, yo`q janob Federiko Mayor Ulug`bek xato qilgan bo`lishi mumkin emas, balki kompyuterlar xato qilgan bo`lishi mumkin, degan edim”.

YUNESKO boshchiligida mamlakatimizda o`tkazilgan yana bir madaniy tadbirleridan biri – o`rta asrlarda ilm-fan sohasiga katta hissa qo`shgan buyuk alloma – Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Nosir – al Farg`oniyning yubeley tantanalari bo`lib hisoblanadi. Ahmad Farg`oniy yunon astranomlari, jumladan, Ptolemeyning “Yulduzlar jadvali” asarida berilgan ma`lumotlarni ko`rib chiqish hamda o`sha davrdagi barcha asosiy joylarning jug`rofiy koordinatalarini yangitdan aniqlash yuzasidan olib borilgan muhim tadqiqotlarda faol ishtirok etdi. Shu munosabat bilan munosabat bilan arab tilidagi ilmiy atamashunoslikka doir ishlarni, xususan, falakiyat, riyoziyot va jug`rofiyaga oid atamalarni belgilab chiqishdek maxsus ilmiy ishlarni amalga oshirishda ham Ahmad Farg`oniyning xizmati kattadir.⁴² 1998-yil oktabrda mamlakatimizda alloma Ahmad al-Farg`oniy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlandi. Farg`ona shahrida alloma haykal o`rnatildi. Al-Farg`oniy asarlari o`zbek tilida nashr etildi. Prezidentimiz I.Karimov 1998-yil 24-oktabrda Farg`ona shahrida Ahmad al-Farg`ony nomiga qurilgan haykalning ochilish marosimida so`zlagan nutqida alloma to`g`risidagi quyidagi fikrlarni bildiradi: “... Ahmad al-Farg`oniy tavalludining 1200 yilligi millatimiz

⁴² M.Aminov, F.Hasanov “Buyuk ajdodlarimiz”.T.:2011-yil. 29-30-bet

uchun katta siyosiy va marifiy ahamiyatga ega. Biz bu sanani davlatimiz va u madaniyatimiz tarixini, mustabid tuzim yillarida nohaq unutilgan buyuk ajdodlarimizning mo`tabar nomlarini qayta tiklashdek oljanob ishning uzviy bir qismidir...

Ahmad al-Farg`oniyning astranomiya fani rivojidagi nufuzi shu qadar ediki, alloma bobomizning nomi kurrasidagina emas, samoda ham abadiy shuhrat topdo. O`n oltinchi asrdayoq Oydagi kroterlardan biriga uning nomi berilgan edi. Atoqli astranom Yan Geveley tomonidan 1647-yili nashr qilingan “Selenografiya” kitobida Oydagi kroterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz – Ahmad al-Farg`oniy va Mirzo Ulug`bek nomi bilan ataladi. 1999-yil noyabr oyida mamlakatimizda buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi hukm surgan nushtegineylar sulolasining so`nggi hukmdori, mo`g`ullar bosqiniga qarshi kurash olib borib mardlik va jasorat ko`rsatgan Jaloliddin Manguberdiga Urganch shahrida haykal qo`yildi.

Jaloliddin Manguberdi – ona yurt himoyachisi, jasur sarkarda va davlat arbobi, xalqimizning Spetamin, Muqanna, Najmiddin Kubro, Amir Temur singari tarixda ochmas iz qoldirgan milliy qahramondir. Jaloliddin Manguberdi – boryo`gi o`ttiz ikki yillik qisqa hayoti davomida el-yurt uchun, xalq ozodligi uchun so`nmas xizmat qilishga ulgurgan ulug` ajdodimizdir.⁴³ 1999-yil 6-noyabrdan mamlakatimizda “Alpomish” dostonining yaratilganligining 1000 yilligi nishonlandi. Termiz shahrida Alpomishga atab ramziy haykal o`rnatildi. 1999-yil 6-noyabrdan prezidentimiz I.Karimov “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda so`zlagan nutqida quyidagi fikrlar keltirilgan: “...Bugun biz ajdodlarimiz badiiy dahosining bebahoh yodgorligi – “Alpomish” dostonining 1000 yilligi bayramida siz, azizlar bilan diydor ko`rishib turganimdan g`oyat mamnunman”. Har qaysi millatning o`z afsonaviy bahodiri, sevgan pahlavoni bor. Alpomish nomi ham bizning shuurimizga munis onalarimiz aytgan

⁴³ I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayat-pirovad maqsadimiz. Asarlar : 8-jild.

allalar bilan kirgan. Ajdodlar yodi, faxr`u g`ururi bizning xotiramizga Alpomish timsolida jo bo`lgan.

YUNESKO xalqaro tasjkiloti tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilgan madaniy tadbirlardan yana biri “Avesto muqaddas kitobining 2700 yilligining nishonlanishi bo`ldi. O`rtal Osiyomxalqalarining eng qadimgi yozma madaniy yodgorligi bo`lgan, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblangan “Avesto” ning 2700 yilligi 2001-yilda nishonlandi.

“Avesto” kitobi yarayilgan Xorazmda ramziy yodgorlik barpo etildi. Yodgorlikka zarhal harflar bilan zardushtiylik dinining asosiy g`oyasi: “Ezgu so`z, ezgu fikr va ezgu amal” shiorlari yozib qo`yildi. President I.Karimovning “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” asarida “Avesto” haqidagi quyidagi fikrlar bildiriladi: “Ota-bobolarimizning asrlar davomida to`plagan hayotiy tajribasi, diniy axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan tarixiy yodgorliklar asosida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, “Avesso” deb atlagan beba ho ma`naviy obida alohida o`rin tutadi. Umuman, aytganda o`rtalarda ilm-fan, madaniyat sohasiga katta hissa qo`shgan yuqorida nomlari zikr etilgan va boshqa buyuk ajdod allomalarimizning, o`z davrida xalq osoyishtaligi, faravonligi uchun dushmangan qarshi mardanovor kurash olib brogan buyuk sarkarda va davlat arboblari, shuningdek, “Alpomish”, “Avesto” kabi muqaddas madaniy yodgorliklarimizning yubeley yoshlarini nishonlashda YUNESKO tashkilotining o`rni va roli katta bo`ldi. Shuningdek, YUNESKO xalqaro tashkiloti mamlakatimiz hududida joylashgan tarixiy shaharlarning yubeleylarini nishonlashda ham katta o`rin tutmoqda. Mamlakatimiz hududida ham mavjud bo`lgan to`rt mingdan ziyod madaniy-ma`naviy obida umumjahon merosining noyob nomunasi sifatida YUNESKO ro`yxatiga kiritilganligi fikrni tasdiqlaydi.⁴⁴ YUNESKO tashkiloti rahnamoligida mamlakatimiz hududida joylashgan 10 lab tarixiy shaharlarning yubeley bayramlari nishonlandi. YUNESKO qarori bilan 1997-yil oktabrda qadim Buxoroning 2500 yilligi mamlakatimizda va YUNESKO

⁴⁴ I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” T.:Ma`naviyat nashriyoti. 2008-yil.

ning Parijdagi qarorgohida nishonlandi. Yubeley munosabati bilan Buxoro shahridagi tarixiy-me`moray obidalar qayta ta`mirlandi, obodonlashtirildi. Prezident I.Karimovning 1997-yil 19-oktabrda Buxoro shahrining 2500 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda so`zlagan nutqida qadim va afsonaviy Buxoro haqida quyidagi fikrlar bildiriladi:”....Buxoro o`lkamizning ming yillar davomida jahon tafakkuri, ma`naviy, madaniy va diniy qadriyatlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shib keladigan, sharafli nomgasazavor bo`lgan muqaddas joylardan biridir...Bu azim shahar, Karmana, Boykent, Vobkent, Shofirkon, Romiton, G`ijduvon kabi qadimgi kentlarni o`z bag`riga olgan Buxoro vohasida yashagan erksevar ajdodlarimiz har qanday istibdod va zulmga qaramay, el-yurt ozodligi yo`lida mutasil qahramona kurashib keldilar.”

1997-yil oktabrda yurtimizdagi yana bir tarixiy shahar – Xiva shahrining 2500 yilligi nishonlandi. Bu haqda YUNESKO qal`a majmuasi 1990-yil YUNESKO ning butunjahon yodgorliklar ro`yxatiga kiritilgan. Ichan qal`a 55 ta tarixiy – me`moray obidani o`z ichiga oladi. Xiva –bizning jonli tariximiz, bu dunyoga kelib ketgan qancha – qancha sultanatlar guvohi, yurtimizning, xalqimizning, millatimizning mislsiz o`tmishidan, ota-bobolarimizning, dahosidan, ma`naviy mulkimizning buyuk iqtidori va qudratidan dalolatdir.⁴⁵

1997-yil Xiva shahrining 2500 yillik yubeley munosabati bilan xiva tarixinining qadimgi davrdan XX asr 90-yillarigacha bo`lgan davrini qarab olgan “Xiva – ming gumbaz shahri” nomli kitob chop etildi. Ushbu kitobda Xiva tarixi haqida quyidagi ma`lumotlar keltiriladi: “...Arab-bor mualliflari (Istaxriy “Hudud ul-olam”) asarlarida Xiva noi X asrdan boshlab tilga olinadi. V.A.Bulatova olib brogan arxeologiya qazishmalari natijasida X-XI asrlarga oid ilk madaniy qatlamlargina aniqlandi.

Akademik Y.G`ulomov esa spool qoldiqlariga asoslib, Xiva miloddan avvalgi III-II asrlar oldin paydo bo`lganini takidlagan edi. V.Bartold ham Kat shahri kabi Xivaga ham musulmonchilik kirib kelishdan avval asos solinganini

⁴⁵ I.A.Karimov: “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida” Asarlar: 6-jild T: O`zbekiston nashriyoti, 1998-yil.

qayd etgandi”. Mamlakatimiz hududida joylashgan qadimiy shaharlardan yana biri Termiz shahri hisoblanadi. Surxondaryo viloyatida joylashgan Termiz qadimgi Kushon davlatining asosiy iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy markazlaridan biri hisoblanadi. YUNESKO qarori bilan 2002-yil Termiz shahrining 2500 yilligi keng nishonlandi. Bu diyorda yashab o`tgan Benazir alloma Hakim Termiziy, islom dunyosida olti buyuk muhaddisdan biri sifatida tan olingen Imom Iso Termiziy, mumtoz shoir Sobir Termiziy, muarrix Samandar Termiziy kabi mo`tabar nomlari xalqimiz hurmat ehtirom bilan tilga oladi.⁴⁶

2002-yil 2-aprel kuni Termiz shahrining 2500 yilligi tantanasida Prezident I.Karimov o`zining “Jayhun sohilidagi boqiy shahar” deb nomlangan nutqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “... Sohibqiron Amir Temur bobomizning aynan mana shu Termiz atrofida o`zining piri buzrukrori Sayyid Baraka hazratlaridan hokimiyat ramzi bo`lgan bayroq va jangavor nog`orani qabul qilgani ham bu tuproqning nechog`li xosiyatli ekanini ko`rsatib turibdi. Bugungi kunda ham tabarruk tuproqni ulug`lab, quyosh jaziramasi, garmsel shamollariga bardosh berib, qiyinchiliklarni yengib mehnat qilayotgan, vatanimizning janubiy sarhadlarida o`tgan mojarosi ufatli 20 yildan ziyod davom etgan notinch va tahlikali vaziyatda ham mardlik va matonatini nomoyon etib, tom ma`noda shu yurtning fidoysi bo`lib yashayotgan Surxon eli, Surxon xalqiga qancha tasannolar aytsak arziydi”. Yurtimizning qadimiy vohalaridan yana biri Qashqadaryo vohasi hisoblanadi. Bu hududda mavjud bo`lgan mil.av.I mingyillikka ya`ni temir davriga tegishli bo`lgan – Yerqo`rg`on va Uzunqir kabi tarixiy shaharlar mavjud bo`lgan. YUNESKO qarori bilan Qashqadaryo vohasida joylashgan Shahrisabz shahrining 2700 yilligi nishonlandi. 2002-yil noyabrda Shahrisabz shahrining yubeleyi keng nishonlandi. Shahrisabz deganda, biz avvalo, olis zamonlarda ajdodlarimiz yashagan, tarixda goh Gava So`g`da, goh Nautaka, goh Kesh deb nom olgan qadimiy makonni tasavvur qilamiz. Bu shahar o`zining uzoq o`tmish davomida ne-ne kunlarni

⁴⁶ I.A.Karimov “Xavfsizlik va tinchlik uvhun kurashmoq kerak” Asarlar: 10-jild. T: O`zbekiston nashriyoti. 2002-yil.

ko`rmadi. Tarix to`fonlari, bosqinlar oqibatida necha bor vayronga aylanib, kultepalar ustiga necha bor tiklandi.⁴⁷

Qashqadaryoning yana bir qadimiy shaharlaridan biri Qarshi shahri hisoblanadi. Qarshi shahrining 2006-yilda 2700 yilligi katta tantana bilan nishonlandi. Bu haqida YUNESKO 2001-yilda qaror chiqargan. Qarshi shahri o`rnida bo`lgan Nasaf shahrining tarixi ko`p mingyilkka borib taqaladi. President I.A.Karimov o`zining “Jamiyatimizni erkinlashtirish islohotlarni chuqurlashtirish, ma`naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir” deb nomlangan to`plamidan joy olgan Qarshi shahrining 2700 yilligiga bag`ishlangan – “Muazzam va mukarram shahar shodiyonasi’ deb nomlangan mavzusida shular haqida quyidagi fikrlar aytildi: “... O`zining uzoq va boy o`tmishi davomida goh Nikshapa, goho Naxshab, keyinchalik Nasaf degan nomlar bilan atalgan Qarshi shahri tarix va bashriyat uchun avvalo madaniyat beshigi sifatida, ko`p – ko`p ulug` siymolar, buyuk mutafakkir zotlar, aziz avliyolarning vatani sifatida qadrli va mukarramdir. Bu yurt o`z tarixida kimlarni, qanday og`ir va mashaqqatli sinovlar, to`fon va suronlarni ko`rmagan. Bu yerdga kimlar kelib ketmagan...Bu yurt ne-ne xonlar, amirlar, chor istelosining zulm va zo`ravonliklarini boshidan kechirgan”.

Qashqadaryo tarixi haqida birinchi olim Ahmadjon Choriyev o`zining “Sohibqiron ma`naviyati” nomli asrida alohida to`xtalib o`tadi. Muallif bu haqda quyidagicha yozadi;.... Biz tarixchi olimlar hozirgi Koson tumaniga qarashli Yerqo`rg`onda arxeologik qazishma ishlari olib borib, qadimgi Naxshab-Qarshi tarixini o`rgandik. Mustaqillikning dastlabki vaqtlaridanoq Yerqo`rg`on xarobalarida respublikamizning yetakchi arxeologik – olimlari tomonidan qazish tadqiqot ishlari yo`lga qo`yildi. Yerqo`rg`onda mil.av. IV-III asrlarda shahar bo`lgani isbotlandi. Bu haqida R.Sulaymonovning “Qadimgi Naxshab”, P.Rovshanovning “Qashqadaryo tarixi” nomli yirik monopoliyalari va qator ilmiy

⁴⁷ I.A.Karimov “Biz tanlagan yo`l- demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li” Asarlar: 11-jild. T. 2003-yil.

maqolalari chop etildi. Yerqo`rg`onda juda qadimiy tarixiy – madaniy yodgorliklar borligi isbotlandi. Buni YUNESKO tashkiloti bosh konferensiyasi 32-sessiyasi ham e`tirof etdi. Qarshi shaharsozlik madaniyatining 2700 yilligini ulkan bayram sifatida nishonlash haqida qaror qabul qilindi”.

Shahrisabz va Qarshi shaharlarining yubeleylari munosabati bilan Qashqadaryo vohasidagi osori-atiqalar, qadamjolar obodonlashtirildi. Yurtimizda joylashgan qadimiy shaharlardan yana biri Marg`ilon shahri hisoblanadi. Marg`ilonga bundan 2000 yil oldin asos solingan , Marg`ilon so`zi olimlarning aniqlashicha “maysazor”, “o`tzor” degan ma`nonlarni anglatadi. Marg`ilon haqida Zahiriddin Muhammad Bobur o`zining “Boburnoma” asarida ma`lumot beradi. Marg`ilon Farg`onadagi 8 ta shahardan biri ekanligi, uning mevalari shirali bo`lib, “donoyi kalon” deb ataluvchi anori va “subhoniy” deb ataluvchi o`rigi haqida aytildi.

Shuningdek, Marg`ilon hunarmandchilikning markazi ham hisoblangan. YUNESKO qarori bilan 2007-yilda Marg`ilon shahrining 2000 yillik yubeleyi nishonlandi. 2007-yilda bo`lib o`tgan yubeley tantanasida Prezident I.Karimov ishtirok etib, Marg`ilon shahrining 2000 yillik to`yi bilan butun O`zbekiston xalqini muborakbod etdi. 2007-yilda yubeley munosabati bilan Marg`ilondagi muqaddas joylar tamirlanib, obodlashtirildi. YUNESKO tashkilotining maxsus qarori bo`yicha 2007-yilda qadimiy va hamisha navqiron bo`lgan Samarqandning 2750 yillik yubeleyi mamlakatimizda va dunyo jamoatchiligidagi keng nishonlandi. 1970-yilda Samarqandning 2500 yilligi nishonlangan edi. Lekin =, mustaqillik yillarida arxeologik olimlarning Afrosiyob va Ko`ktepa yodgorligida qazish ishlarining olib borilishi natijasida Samarqandning yoshi 2750 da ekanligi aniqlandi va bu keng jamoatchilikka e`lon qilindi. Qadimgi So`g`diyonaning poytaxti Samarqand shahrida va uning atrofida odamlar juda qadim-qadim zamonlardan boshlab yashaganlar. Arxeologlar Samarqanddan 40 km janubda janubda joylashgan Omonqo`ton g`oridan bundan 40-60 ming yillar ilgari

yashagan ibtidoiy odamlarning manzilgohini topganlar. Ibtidoiy odam yashagan xuddi shunday manzilgoh shahar ichidan topildi.⁴⁸

President Islom Karimov 2006-yil noyabrda “Samarqand shahrining 2750 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazish to`g`risida” deb nomlangan qarori e`lon qilingach tashkiliy ishlar boshlanib ketdi. Tarixchi olim Amriddin Berdimurodov o`zining “Samarqand tarixidan tomchilar” nomli kitobida Samarqandning 2750 yoshda ekanligini quyidagicha izohlaydi: “Afrosiyobning eng qadimiy qismi, ya`ni birinchi mudofaa devoir ichidagi maydonda qazishma XX asrning 80-yillarida boshlangan bo`lib, mustaqillik yillarida O`zbekiston – Fransiya qo`shma, xalqaro ekspeditsiyasining faoliyati tufayli shu yerda keng ko`lamda tadqiqotlar olib borildi. Natijada, ekspedetsiya a`zolari shahar arkining eng pastki madaniy qatlamlarini ham to`laqonli o`rganishga erishdilar. Qazishma olib borilganda bu yerdan avvallari uchratilmagan tosh qurollar, spool idishlar va qalinligi 7 metrdan iborat guvaladan qilingan mudofaa devoriga duch kelindi. Bu mudofaa devoir eramizdan avvalgi IX-VII asrlarga oidligi aniqlandi. Shu tariqa, Samarqandga 2750 yil ilgari asos solinganligi isbotlandi” Muallif o`z fikrini davom ettirib, “YUNESKO tashkilotining shaharlar yoshini aniqlashda qo`llaydigan 10 ta asosiy shartlar mavjud. Bu shartlardan eng muhimlari: shahar maydonining hajmi, hunarmandchilik, savdo-sotiq, yozuv va fan, san`at-madaniyat kurtaklarining paydo bo`lganligi, hukmdor saroyi, ibodatxonalar, mudofaa devoir tizimlarining barpo qilinganligi kabi belgilardir.

Samarqand YUNESKO qo`ygan barcha talablarga to`la javob bergan”. 2007-yilda Samarqandning muborak to`yi tantana bilan nishonlandi. 2009-yilda YUNESKO qarori bilan olim Toshkent shahrining 2200 yilligi nishonlandi. Tarixiy davrlarda Binkat, Shosh, Choch nomlari bilan atalgan Toshkent o`zining nomini XI asrda olgan. President I.Karimov 2009-yil 1-sentabrdan Toshkent shahrining 2200 yillik tantanasida ishtirok etib nutq so`zladi. Yigirma ikki asravval barpo qilingan, Buyuk ipak yo`li chorrahasida joylashgan, o`zining muhim

⁴⁸ Berdimurodov A. “Samarqand tarixidan tomchilar” T.:Ma`naviyat nashriyoti. Toshkent 2015 28-bet.

jug`rofiy va geosiyosiy o`rni, dunyo svilizatsiyasiga qo`shtan ulkan hissa bilan haqli ravishda sharq darvozasi” deb nom olgan Vatanimiz poytaxti –azim Toshkent srquyosh O`zbekistonimizning boy tarixi va betakror ko`rku – taravotini o`zida yaqqol nomoyon etadi, Toshkent bugungi kunda nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaqamizning yuksak taraqqiy etgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy-ma`rifiy markazidir. U qudratli sanoat va transport-kommunikatsiya tarmoqlari, zamonaviy ijtimoiy infratuzilmani o`zida mujassam etgan yirik megapolislardir.⁴⁹ Keyingi yillarda azim Toshkent – islom madaniyatining poytaxti degan nom bilan atalmoqda. Ma`lumki, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo`shib keladi.

Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi, butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo`lmish Islom Konferensiyasi tashkilotining ta`lim, fan va madaniyat masalalari bo`yicha tuzilmasi – AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2001-yilda Islom madaniyati poytaxti deb e`lon qilinganligi ham shunday yuksak e`tirofning yana bir tasdig`idir.⁵⁰ Don, non, iymon shahri bo`lgan Toshkent ko`plab din va dunyoviy olimlar, allomalar maskani bo`lib xizmat qilgan Shayx Hasanda Tohur, Zayniddin bobo, Qaffol Shoshiy shular jumlasidandir. 2008-yilda yubeley munosabati bilan Toshkent shahriga Amir Temut ordeni topshirildi. YUNESKO tashkilotirahbarligida va hamkorligida tashkil etilgan madaniy tadbirdaridan yana biri bu- Sharq taronalari xalqaro musiqa festivali hisoblanadi. Har 2 yilda bir marta Samarqand shahrida 1997-yildan buyon ushbu musiqa festivali o`tkazilib kelinmoqda. President I.Karimov 1997-yil 26-avgust kuni festivalning ochilish marosimida bo`lib, quyidagi fikrlarni bildiradi:...Bugungi musiqa bayramida ishtirok etayotgan Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Pokiston, Malayziya, Iordaniya, Isroi, Qozog`iston, Turkmaniston, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Meksika, Aralsistonijrochi va san`atkorlariga chin qalbimdan minnatdorchilik bildirib, ularning har biriga o`zbek xalqining salomi va hurmatini yetkazishdan benihoya baxtiyorman!...Sharq

⁴⁹ I.A.Karimov “Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni moderenizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko`tarilish sari” Asarlar: 18-jild. T: O`zbekiston nashriyoti. Toshkent 2010-yil.

⁵⁰ I.A.Karimov. “Yuksak ma`naviyat yengilmash kuch” T:Ma`naviyat nashriyoti. Toshkent 2008-yil

musiqasi, Sharq falsafasi, Sharq dunyosining uzviy bir qismidir. Sharq musiqasining jahon madaniy merosida tutgan o`rni benohoya buyuk”. Sharq taronalari 1997-yildan buyon har 2 yilda ko`hna Samarqandda o`tkazib kelinmoqda. Bu festival 2009-yilda ham ko`tarinki kayfiyatda o`tkazildi. Sharq taronalari 7-xalqaro musiqa festivalida yurtboshimiz I.Karimov ham qatnashib, tabrik so`zi yo`lladi. “Butun dunyoda obro` - e`tibori tobora ortib borayotgan bu festivalning jahondagi end ko`hna shaharlardan biri bo`lgan, har qadamda Sharq nafasi ufurib turadigan go`zal va afsonaviy Samarqand shahrida o`tkazilishi bu anjumanga beqiyos joziba va ma`no –maznun bag`ishlaydi, desak ayni haqiqatni aytgan bo`lamiz”.⁵¹ 2009-yilda bo`lib o`tgan 7-xalqaro Sharq taronalari musiqa festivalining dastlabki anjumanida 31 ta mamlakat vakillari ishtirok etgan bo`lsa, keyinroq ularning soni 47 ta davlatdan kelgan 260 dan ziyod mohir sozanda va ijrochi qatnashdi. 1997-yil 11-martda qabul qilingan Respublika hukumatining “Sharq taronalari xalqaro musiqa festivalini o`tkazish to`g`risida” qarori bo`yicha Sharq taronalari 1- xalqaro musiqa festivali 1997-yil 25-avgust 2-sentabr kunlari Samarqandda bo`lib o`tgan. “Sharq taronalari” birinchi xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlaridan ijrochilar, san`atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdilar, festivalda yangragan o`zbek ohanglari, kuy qo`schiqlari jahon uzra aks-sado berdi.

Ozarbayjonlik Simara Imonova oily mukofot - Gran – priga sazavor bo`ldi. 1-o`rin Munojat Yo`lchiyeva va nindistonlik Shainu Khulonoga nasib etdi. Har ikki yilda Samarqandda “ Sharq taronalari “ xalqaro festevali o`tkazish an`anaga aylandi. 1999-yil II, 2001-yilda III, 2003-yilda IV, 2005-yilda V, 2007-yilda VI, 2009-yilda VII, 2011-yilda VIII, 2013-yilda IX, 2015-yilda X xalqaro “Sharq taronalari” musiqa festevali o`tkazildi. 2003-yildan boshlab qo`schiqlar jonli aytildigan bo`ldi. Umuman aytganda mamlakatimizda barcha madaniy sohalarda amalga oshirib kelinayotgan islohotlar, tadbirlar, osori-atiqalarni asrab avaylash va yubeleylarni o`tkazishda BMT ning ilm-fan, madaniyat sohalari bo`yicha xalqaro

⁵¹ I.A.Karimov “Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko`tarish sari” Asarlar: 18-jild. T:O`zbek stan nashr. Toshkent-2010-yil.

tashkiloti – YUNESKO ning o`rni va roli katta bo`ldi. Moddiy – madaniyatimizning beباھو manbalari bo`lgan me`moray obidqalarimizni asrabavaylash har birimizning muqaddas burchimiz hisobланади. Mamlakatimizdagи nechta shahar Samarqand, Buxoro va Xiva “ochiq osmon ostidagi muzey” degan nom oldi.⁵²

Xulosa.

YUNESKO xalqaro tashkilotining O`zbekiston bilan ilm-fan ta`lim, axborot-kommunikatsiya va madaniyat sohasidagi hamkorligi muhim ahamiyat kasb etdi. O`zbekiston YUNESKO ning ko`plab majlis va sessiyalarida muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash yo`lida jahon hamjamiyati tomonidan O`zbekistonning roli va hissasi tarixiy ahamiyatga ega ekanligi O`zbekiston Respublikasi hukumatining taklifiga binoan O`zbekiston Respublikasida 1998-yilning 6-7-noyabrdagi YUNESKO ijroiya qo`mitasining 155 sessiyasi yakunlovchi majlisining muvaffaqiyatli o`tishiga sabab bo`ldi. Sessiya natijasiga ko`ra “A`zo davlatlarda tinchlik madaniyati va YUNESKO faoliyati” Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Hozirgi vaqtda respublika kommunikatsiyani rivojlantirish bo`yicha xalqaro dasturning hukumatlararo kengashi kabi YUNESKO ning yordamchi organlari qatoridan joy

⁵² Jo`rayev N. “Mustaqil O`zbekiston tarixi” T: G`G`ulom nomidagi nashriyot. Toshkent -2003-yil. 125-bet.

olgan. (2001-2005-yillar). O`zbekiston vakillari dinlararo muzokaralar, xalq og`zaki ijodi me`rosi bo`yicha xalqaro tanlov hay`ati bo`yicha YUNESKO ning xalqaro maslahat kengashi, shuningdek, 1998-yil YUNESKO tashabbusi bilan qilingan Orol dengizini qutqarish bo`yicha YUNESKO ilmiy-maslahat kengashining faol a`zosiga aylandi.⁵³

O`zbekiston YUNESKO xalqaro konsepsiyasiga qo`shildi, jumladan, butun jahon tibbiy va madaniy boyliklarni himoya qilish to`g`risidagi konsepsiya (1993-yildan boshlab) qurolli mojarolar xavfi tug`ilganda madaniyqadriyatlarni himolash to`g`risidagi konsepsiya (1996-yildan), texnik va kasb-hunar ta`limiga oid konsepsiya (1997-yildan), suv-botqoq qushlarining yashashi uchun xalqaro muhim ahamiyatga ega bo`lgan nom zonani yaratishga oid konsepsiya (2001-yildan), O`zbekiston va YUNESKO ning samarali hamkorligi doirasida bir qator normativ hujjatlar, jumladan O`zbekiston Respublikasi hukumati va YUNESKO o`rtasidagi hamkorligi to`g`risidagi Memorandum (1995-yil 26-avgust), O`zbekistonda YUNESKO byurosi tashkil qilish to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi humumati va YUNESKO o`rtasidagi bitim (1996-yil 23-aprel), YUNESKO “Sharq taronalar” mukofotining ta`sis etilishidagi O`zbekiston Respublikasi va YUNESKO (2000-yil 13-sentabr). YUNESKOning o`sha paytdagi bosh direktori Federiko Mayorning (1995-yil 26-27-avgust, 1998-yil 6-7-noyabr) O`zbekistonga tashriflari YUNESKO va O`zbekiston o`rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash yo`lidagi eng muhim voqealardan biri bo`ldi. Tashrif davomida YUNESKO bosh direktori O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilindi va respublika turli vakillari rahbarlar bilan uchrashuvi, O`zbekistonda YUNESKO loyihalari va dasturlarini amalga oshirish bo`yicha masalalarni muhokama qildi. O`zbekistonda ilm-fan, madaniyat sohasidagi tadbirdarda, madaniy qadriyatlarni tiklashda YUNESKO ning o`sha paytdagi bosh direktori – Federiko Mayor va tarixchi olimlari, ilm-fan jonkuyarlarining xizmatlari katta bo`ldi.⁵⁴

⁵³ Internet ma`lumotlari. Google.uz

⁵⁴ N.Jo`rayev “Mustaqil O`zbekiston tarixi” T: O`zbekiston nashriyoti, Toshkent 2003-yil, 417-bet.

1996-yil 10-aprelda YUNESKO madaniy hamkorlikni mustahkamlash sohasidagi g`oyat katta xizmatlari, Markaziy Osiyo xalqlarining nihoyatda boy ma`naviy me`rosini tiklash va ommalashtirishga, “Ipak yo`li-muloqot yo`li” xalqaro dasturini amalga oshirishga qo`shtan ulkan hissasi uchun BMT ning ta`lim, fan va madaniyat masalalari bo`yicha tashkiloti bosh direktori, taniqli olim va jamoat arbobi Federiko Mayor “Do`stlik” ordeni bilan mukofotlash to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni qabul qilindi.

O`zbekiston madaniy va ma`naviy merosni saqlash va himoya qilish sohasida xalqaro-huquqiy majburiyatlarni saqlagan holda YUNESKO bilan hamkorlikni chuqurlashtirishga katta e`tibor bermoqda. Bu madaniy va tabiiy merosni saqlash ishlarida xalqaro ekspertizaga ega bo`lish, o`zbek madaniyatini chet davlatlarda keng ommalashtirishni amalga oshirishga imkoniyatlar beradi. O`zbekistonning insoniyatning qadimiy sivilizatsiyasini, uning madaniy va tabiiy me`rosi obyektlarini aks ettiruvchi ko`plab tarixiy yodgorliklari bugungi kunda YUNESKO ning butun jahon me`rosi ro`yxatiga kiritilgan. Bu Ichan Qal`a (1990-yil), Buxoroning tarixiy markazi (1993-yil), Shahrisabz tarixiy markazi (2000-yil) va Samarqand – madaniyatlar kesishgan joy (2001-yil), Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlangan qo`lyozmalar to`plami, shuningdek, dunyoda qadimiy nusxalardan biri sanalgan “Usmon Qur`oni” YUNESKO ning “Jahon yodgorligi” xalqaro dasturiga kiritilgan.

O`zbekiston dinlararo muzokara rivojlanishiga katta ahamiyat bergen holda YUNESKO ning bu yonalishidagi faoliyati va rolini alohida yuqori baholaydi. Aynan ushbu konteksda O`zbekiston 2000-yilning 13-14-sentabrda Toshkent shahrida YUNESKO ning “Jahon madaniyatini qo`llab-quvvatlashda jahon dinlari” Xalqaro anjumanining o`tkazilishiga asos soldi. Ushbu Konferensiya ishlarida turli diniy tashkilot vakillari, mashhur olimlar va rahbarlar shuningdek, YUNESKO ning o`sha bosh direktori K.Mosuura ishtiroy etdilar. YUNESKO O`zbekistonda tarixiy – madaniyatni tiklashda ham muhim o`rin tutadi. Ayniqsa, 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlashda YUNESKO katta

ishlarni amalga oshirdi. Bu o'rinda Prezident I.A.Karimov o'zining " Tarixiy xotitasiz - kelajak yo`q" nomli asarida quyidagi fikrlarni aytadi: "Biz o'zbeklar ulug`, bunyodkor xalq deb dunyoga tarannum etyapmiz va aslida ham shunday. YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida Amir Temur bobomizning to`ylarini o'tkazishdan maqsad nima edi? Komil bu insonning, eng avvalo, buyuk davlat asoschisi, buyuk bunyodkor, ijodkor shaxs bo`lganini, fan, madaniyatga homiylik qilib, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shganini olam ahliga bildirish edi".

Shuningdek, YUNESKO ning mamlakatimizni ko`plab xalqaro va mintaqaviy forumlarni o'tkazish joyi sifatida tanlagani bugungi O'zbekistonning yuqori ilmiy – intellectual imkoniyatlarining va uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi asosiy rolining tan olinishi deb hisoblash mumkin. So`nggi yillarda O'zbekistonda "Madaniyat sohasidagi investitsiyalar" xalqaro anjumani (1997-yil sentabr, Toshkent), "Bank sohasi va biznesga yangi texnologiyalarni jalb qilish" mintaqaviy seminar (1998-yil mart, Toshkent): "Nogiron bolalar ta'limi bo'yicha mintaqaviy seminar (1998-yil oktabr Buxoro): Orol dengizi suv zaxiralari istiqboli" ekspertlar xalqaro uchrashuvi (1999-yil oktabr, 2002-yil may, Toshkent); "Sufizm va dinlararo muzokaralar" (2002-yil sentabr Buxoro) va boshqa anjumanlar katta muvaffaqiyat bilan o`tdi.⁵⁵ Bugungi kunda ham YUNESKO bosh direktori Irina Bukova boshchiligidida O'zbekistonda barcha jabhalarda hamkorlik davom etmoqda.

⁵⁵ Internet ma'lumotlari. Google.uz

Foydalanilgan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: "O'zbekiston nashriyoti" Toshkent 2015-yil.
2. I.A.Karimov "Yangicha fikrlash va ishlash talabi" T: "O'zbekiston nashriyoti" Toshkent 1997-yil.
3. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q" T:"Sharq nashriyoti" Toshkent 1998-yil.
4. I.A.Karimov "Xavfsiz va barqaror taraqqiyot yo'lida" T: "O'zbekiston nashriyoti" Toshkent 1998-yil.
5. I.A.Karimov "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz" T: "O'zbekiston nashriyoti" Toshkent 1999-yil.

6. I.A.Karimov “Ozod va obod vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz” T: “O’zbekiston nashriyoti” Toshkent 2000-yil.
7. I.A.Karimov “Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak” T: “O’zbekiston nashriyoti” Toshkent 2002-yil.
8. I.A.Karimov “Biz tanlagan yo’l – demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo’li” T: “O’zbekiston nashriyoti” Toshkent 2003-yil.
9. I.A.Karimov “ Tinchlik va xavfsizlik o’z kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog’liq” T: “O’zbekiston nashriyoti” Toshkent 2004-yil.
- 10.I.A.Karimov “Jamiyatimizni erkinlashtirishimiz, islohatlarni chuqurlashtirish, ma`naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish –barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir” T: “O’zbekiston nashriyoti” Toshkent 2007-yil.
- 11.I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch” T: “Ma`naviyat nashriyoti” Toshkent 2008-yil.
- 12.I.A.Karimov “ Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo’lida” T: “O’zbekiston nashriyoti” Toshkent 2008-yil.
- 13.I.A.Karimov “ Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko`tarish sari” T: “O’zbekiston nashriyoti” Toshkent 2010-yil.
- 14.I.A.Karimov “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir” T:.”O’zbekiston nashriyoti” Toshkent 2015-yil
- 15.“Xiva ming gumbaz shahar” T: “Yangi asr avlodи nashriyoti” Toshkent 1997-yil.
- 16.Aminov M. Hasanov F. “Buyuk ajdodlarimiz” T: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” R.N, Toshkent 2011-yil.

]

- 17.Choriyev A. “Sohibqiron ma`naviyati” T: “Yangi asr avlodi nashriyoti” Toshkent 2011-yil.
- 18.Jo`rayev N. “Mustaqil O`zbekiston tarixi” T: “G`.G`ulom nomidagi” Toshkent 2003-yil.
- 19.Levitin L. “O`zbekiston tarixiy burilish pallasida” T: “O`zbekiston nashriyoti”, Toshkent 2001-yil.
- 20.Sanaqulov U, Xondamova M, Mamaramov Q. “Amir Temur saltanatining donishmand vorisi” T: “Navruz nashriyoti” Toshkent 2014-yil.
- 21.Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonova S. “O`zbekiston tarixi” T:”Iqtisodiy-moliya nashriyoti” Toshkent 2006-yil.

Qo`shimcha adabiyotlar

- 1.Hakimov G. “O`zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti” T: O`zbekiston nashriyoti” Toshkent 1999-yil.
2. Lavasov M. “O`zbekistonning xalqaro aloqalari” T: “O`zbekiston nashriyoti” Toshkent 1998-yil
- 3.Ustav YUNESKO/ Международные нормативные акты YUNESKO M” Logos 1993-yil.
- 4.Lex.uz
- 5.ZIyo.Net.uz
- 6.Google.uz
- 7.Kitob.uz

